

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIM VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UDK

**M A G I S T R A T U R A   B O ‘ L I M I**

**«O‘zbek tilshunosligi» kafedrası**

**SMAYLOVA DILBAR**

**«O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI TENG  
BOG‘LOVCHILARNING QO‘LLANILISHI»**

**M A G I S T R L I K   D I S S E R T A T S I Y A**

**Mutaxassislik: 5A141101 – O‘zbek tili**

DAKda himoya qilishga ruxsat berilgan

Magistratura bo‘limi

boshlig‘i: \_\_\_\_\_ p.f.n., dots. U.Seytjanova

Kafedra

mudiri: \_\_\_\_\_ p.f.n. Sh.Yuldasheva

Ilmiy

rahbar: \_\_\_\_\_ F.f.d., prof. S.Ashirboyev

Nukus-2011

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	<b>3-11</b>
<b>I Bob. O‘zbek va qoraqalpoq tillarida qo‘llanadigan teng bog‘lovchilar tavsifi.</b> .....	<b>12-38</b>
<b>1.1. Teng bog‘lovchilarni belgilash nazariyasi to‘g‘risida.</b> .....	<b>12-23</b>
<b>1.2. O‘zbek va qoraqalpoq tillarida barobar qo‘llanadigan teng bog‘lovchilar.</b> .....	<b>23-30</b>
<b>1.3. O‘zbek va qoraqalpoq tillarida farqli teng bog‘lovchilar (asl va funksional bog‘lovchilar).</b> .....	<b>30-36</b>
<b>Bob bo‘yicha xulosalar.</b> .....	<b>36-37</b>
<b>II Bob. O‘zbek va qoraqalpoq tillarida qo‘llanadigan teng bog‘lovchilar semantikasi.</b> .....	<b>38-59</b>
<b>2.1. Teng bog‘lovchilarning sintaktik guruhlarini (uyushiq bo‘lak va gaplarni) bog‘lashi.</b> .....	<b>39-51</b>
<b>2.2. O‘zbek (qoraqalpoq) tilidan qoraqalpoq (o‘zbek) tiliga tarjima qilingan asarlarda teng bog‘lovchilardan foydalanish imkoniyatlari.</b> .....	<b>51-58</b>
<b>Bob bo‘yicha xulosalar.</b> .....	<b>58-59</b>
<b>Umumiy xulosalar.</b> .....	<b>60-62</b>
<b>Adabiyotlar ro‘yxati.</b> .....	<b>63-66</b>

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, mamlakatimizning istiqbol davri taraqqiyoti, milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi ilm-fanimizning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov: “...o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir”<sup>1</sup> – deb bejiz ta’kidlamagan edi.

Mustaqillik yillari tilshunoslik sohasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tilshunoslikning barcha sohalari bo‘yicha yangi tadqiqotlar yaratildi va yaratilmoqda. Tillarni qiyosiy o‘rganish ham tilshunoslik uchun shakllanish va rivojlanish omili hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Bizning umumiy milliy xususiyatlarimiz juda yaqin bo‘lsa-da qoraqalpoq xalqi o‘zining qadimiy tarixi, urf-odatlari, an‘analari, tili, madaniyatiga xos betakror jihatlati bilan ajralib turadi”<sup>2</sup>

Tillarni qiyosiy tadqiq qilish uzoq tarixga ega. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar Sharqda M.Koshg‘ariy, M.Zamaxshariy, A.Navoiy, Z.M.Bobur kabi allomalarning, G‘arbda F.Shlegel, A.V.Shlegel, I.A.Boduen de Kurtene, V.Gumboldt, A.Shleyxer, F.F.Fortunatov, M.M.Pokrovskiy, L.V.Shcherbak, N.A.Baskakov, E.D.Polivanov kabi tilshunoslarning ismlari bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda ham A.Abduazizov, J.Bo‘ronov, Q.Toymetov, M.I.Rasulova, Sh.Rahmatullaev, O.Azizov va boshqalar tipologiya masalalari bilan shug‘ullanganlar.

XIX asrda tezlik bilan rivojlanish bosqichiga o‘tgan tipologiyaning muhim xususiyati shundaki, u turli tillar – qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar doirasida ish ko‘radi. Ushbu tillarni o‘zaro qiyosiy o‘rganadi. Shu jarayonda tipologiya qiyoslanayotgan tillarning tuzilishidagi o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlaydi, izohlaydi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent, Ma’naviyat, 2008. – B. 87.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. – Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 1998. – 103-b.

Ma'lumki, har bir milliy til o'z taraqqiyotida mukammallashib boradi: uning grammatik va fonetik normalari barqarorlashadi, lug'at tarkibi esa boyib boradi. Shuning natijasida til eng murakkab fikrlarni chiroyli va har xil formada ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida yechimini kutayotgan dolzarb masalalar haqida so'z yuritilar ekan qardosh turkiy tillarni o'zbek tili bilan muqoyasa qilish borasida keyingi paytlarda yo'l qo'yilayotgan sustkashlikka barham berish haqida mutaxassislar tomonidan bildirilayotgan fikr-mulohazalar alohida ahamiyat kasb etadi<sup>3</sup>. Ma'lumki, bir til oilasiga mansub tillar bo'yicha qiyosiy tadqiqotlar ko'pincha tilning leksik, morfologik sathlarida amalga oshiriladi. Jumladan, Sh.Abdullayevning "Tarjima asarlarda frazeologizmlar semantikasi (T.Qayipbergenov asarlarining o'zbekcha tarjimasida) mavzusidagi nomzodlik ishida o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi iboralar qiyosiy o'rganilib, ularning umumiy va farqli tomonlari ochib berilgan edi<sup>4</sup>. I.Kazakovning bir qator maqolalarida o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi ot so'z turkumi, ot yasovchi qo'shimchalarning qiyosiy-tipologik tadqiqi olib borilmoqda<sup>5</sup>.

Qarindosh tillar orasidagi umumiy va o'ziga xos tomonlarni tadqiq etish, ikki til orasidagi tafovut va o'xshashliklarni tarjimada qanday berish masalalarini o'rganish qiyosiy tilshunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Har qanday bilim zaminida taqqoslash yotar ekan, qiyoslanuvchi tillarning o'ziga xos jihatlarini ochishda qiyosiy va tavsifiy usullarning ahamiyati benihoya kattadir.

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillik davrida o'zbek va qoraqalpoq tillarining davlat tili sifatidagi nufuzi ortib, funktsional-uslubiy imkoniyatlari kengayib borayotganligi bois bu yo'nalishdagi tadqiqotlarga ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Bu holat o'qish-o'qitish ishlarini zamon talablari darajasida tashkil etishga sezilarli ta'sir qilishi tabiiy. Bizning o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi teng

<sup>3</sup> Dadaboyev H. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. O'zMU ilmiy maqolalar to'plami.III. – T.: 2006. 6-b.

<sup>4</sup> Abdullayev Sh. Tarjima asarlarda frazeologizmlar semantikasi (T.Qayipbergenov asarlarining o'zbekcha tarjimasida). fil. fan. nomz. ...dis. – T.: 2006.

<sup>5</sup> Kazakov I. Qoraqalpoq guruhlarida otlardagi so'z yasalishi muammosini o'rgatish tajribasidan. // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2006. – №2. – B. 82-85.

bog'lovchilarning qo'llanilish xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotimiz ham ana shu ehtiyoj samarasidir. Bu esa tadqiqot mavzusining bugungi turkologiya fani uchun dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek va qoraqalpoq tillari turkiy tillarning qarluq va qipchoq guruhlariga mansub tillar hisoblanadi. Bu tillarda gaplashuvchi xalqlar bir hududda qadimdan o'zaro yaqin munosabatda yashaganlar, shuning uchun ham bu tillarning yaqinlik darajasi boshqa ba'zi tillarga nisbatan ancha kuchli.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** So'z turkumlari, xususan, yordamchi so'z turkumlarini tadqiq qilish masalasi til tarixining ilk bosqichlaridanoq boshlangan. Tilshunoslik sohasida qalam tebratgan sermahsul olimlardan biri Mahmud Zamaxshariy (11-12 asr)ning grammatikaga doir asarlari ichida "Al-mufassal" ("Grammatika bo'yicha mufassal kitob") arab tili morfologiyasi va sintaksisini o'rganishda yirik va muhim qo'llanma sifatida Sharqda ham, G'arbda ham juda mashhur bo'lgan. Zamaxshariyning "Muqaddimatul adab" (Adabiyot ilmiga kirish) asari Xorzamshohlardan Abdul Muzaffar Otsizga bag'ishlanib yozilgan. Asar 5 ta qismga bo'linib, ularda otlar, fe'llar, bog'lovchilar (Ta'kid bizniki – D.S.), ot o'zgarishlari, fe'l o'zgarishlari haqida bahs yuritiladi<sup>6</sup>. Turkiyshunoslik, jumladan o'zbek tilshunosligining shakllanishi va rivojida hanuzgacha muallifi noaniq bo'lgan "At-tuhfat uz-zakiyati fil lug'at it-turkiya" asari ham muhim o'rin egallaydi. Asar ko'proq qipchoqlar tili materiallariga asoslanib yozilgan. Ba'zi o'rinlarida uning materiallari turkman tili bilan solishtirilgan. Bugungi qipchoq guruhiga mansub bo'lgan tillarning tarixini, shuningdek, o'zbek xalqining shakllanishida katta etnik guruh bo'lib qo'shilgan qipchoq shevalari tarixini o'rganishda mazkur asar eng mo'tabar manba bo'lib xizmat qiladi. Asarning yana bir muhim jihati shundaki, unda turkiy tillarning fonetikasi, so'z yasalishi, morfologiyasi (Ta'kid bizniki – D.S.), sintaksisi bo'yicha izchil ma'lumotlar berilgan<sup>7</sup>.

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12-jild. –Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 495-b.

<sup>7</sup> O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12-jild. –Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 495-b.

XX asrning 20-yillarida yaratilgan A.Fitratning «Sarf», M.Qori, Q.Ramazon va Sh.Zunnunlar muallifligida nashr qilingan «O‘zbekcha til saboqlig‘i» asarlarida bog‘lovchi termini qayd qilinmaydi, biz bog‘lovchi deb yuritadigan so‘zlar ko‘makchi so‘zlar deb yuritilgan<sup>8</sup>.

XX asr boshlaridagi tadqiqotlarda yordamchi so‘z turkumlarini chegaralashda bir xillik kuzatilmaydi. Xususan, bugungi kunda biriktiruv bog‘lovchilar qatorida sanaladigan aksariyat so‘zlar ko‘makchilar sifatida qaralgan yoki teng bog‘lovchilar qatoriga ergashtiruvchi bog‘lovchilar ham kiritilgan. XX asr boshlarida tilshunoslik asarlarida bog‘lovchilarning ifodalanishi va izohlanishi bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan J.Qodirov A.Fitratning **tag‘in, daxi, bilan, ila, la hamda** biriktiruv bog‘lovchilarini **qabatlov ko‘makchilari** deb nomlaganligini aytib o‘tar ekan, “qabatlov” so‘zini «yoniga olmoq» ma’nosida qo‘llangan va o‘zining «ikki ma’noni yig‘ib» tushunchasidan kelib chiqqan, boshqacha aytganda, hozirgi tushunchalar doirasida izohlansa, bu iborani uyushiq bo‘laklarni va bog‘langan qo‘shma gaplarni o‘zaro bog‘lashi deb tushunish lozim deb hisoblaydi<sup>9</sup>. Tadqiqotchi «O‘zbekcha til saboqlig‘i»ning IV bo‘limida bunday bog‘lovchilar «bog‘lov ko‘makchilari» deb yuritilganligini ta’kidlab, «...bir necha gapni yoxud gap bo‘laklarini bir-biriga bog‘lamoq uchun» qo‘llanishini aytadi<sup>10</sup>. Biroq keltirgan misollari ichida va, ham, hamda bog‘lovchilari, **-da -u** bog‘lovchi o‘rnida qo‘llanadigan yuklamalar biriktiruv bog‘lovchilari sanalishini, faqat **-ki, -kim** aniqlov bog‘lovchisi shu qatorga xato kiritilganligini to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tgan. Zidlov bog‘lovchilari «**chiqarish ko‘makchisi**» (A.Fitrat), **ters ko‘makchilari** («O‘zbekcha til saboqlig‘i») deb nomlangan bo‘lsa, inkor bog‘lovchisi alohida ajratilmagan. Ko‘p o‘rinlarda bog‘lovchilar ko‘makchi, yuklama, modal so‘zlar bilan aralashtirib yuborilgan<sup>11</sup>.

<sup>8</sup> Qodirov Q., Qodirov J. XX asr boshlaridagi tilshunoslik asarlarida bog‘lovchilarning ifodalanishi va izohlanishi. «Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining fan, ta’lim va tarbiya masalalarini rivojlantirishdagi o‘rni». Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –Nukus, 2010. 260 b.

<sup>9</sup> Qodirov Q., Qodirov J. XX asr boshlaridagi tilshunoslik asarlarida bog‘lovchilarning ifodalanishi va izohlanishi. «Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining fan, ta’lim va tarbiya masalalarini rivojlantirishdagi o‘rni». Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –Nukus, 2010. 260 b.

<sup>10</sup> O‘sha manba

<sup>11</sup> O‘sha manba

O‘zbek tilshunosligi tarixida morfologiya bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar o‘tgan asrning 40-yillaridan boshlandi. Professor A.G‘ulomovning “O‘zbek tilida kelishiklar” (1940), “O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi” (1944) singari asarlarning dunyoga kelishi, shuningdek, U.Tursunovning ko‘makchilar, X.Komilovning kelishiklar, Z.Ma‘rufovning ot va sifat yuzasidan olib borgan tadqiqotlari o‘zbek ilmiy morfologiyasining yaratilishidagi dastlabki harakatlardan bo‘ldi. Morfologiya bo‘limi bo‘yicha jiddiy ilmiy tadqiqotlar 50-yillarda ayniqsa kuchayadi. Bu yillarda barcha yetakchi ilmiy kuchlar o‘zbek tilining birinchi ilmiy grammatikasini yaratishga safarbar qilindi va “Hozirgi zamon o‘zbek tilidan materiallar” rukini ostida A.G‘ulomovning “O‘zbek tilining morfologiyasiga kirish”(1953), “Fe‘l” (1954), S.Usmonovning “O‘zbek tilida undoshlar” (1953), X.Komilovning “O‘zbek tilida son va olmosh” (1953), M.Asqarova, R.Jumaniyazovlarning “O‘zbek tilida ravishdosh va sifatdosh” (1953), S.Fuzailovning “O‘zbek tilida ravishlar” (1953), Sh.Shoabdurahmonovning “O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar” (1953) singari asarlari nashr etildi<sup>12</sup>.

O‘zbek tilidagi yordamchi so‘z turkumlari, xususan, bog‘lovchilar Sh.Sh.Shoabdurahmonov, R.Rasulov, S.Karimov, R.Qo‘ng‘urov, M.Qurbonov, N.Ernazarov, A.B.Pardayevlar tomonidan tadqiq etilgan. Tadqiqotlarda yordamchi so‘z turkumlariga munosabat turlicha bo‘lib, xususan, bog‘lovchilarning grammatik vazifalari, turlari haqidagi qarashlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Q.Da‘wletbayev, E.Da‘wenov, M.Da‘wletov, A.Bekbergenov, Q.A.Bekbergenov, Z.Tilewova, B.A.Shrazovlar qoraqalpoq tilidagi yordamchi so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganganlar.

Qoraqalpoq tilida bog‘lovchilar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish 60-yillarda boshlangan deyish mumkin. Q.Da‘wletbayev va M.Da‘wletovlarning ilmiy tadqiqotlarida, oliy o‘quv yurtlariga bag‘ishlangan darsliklarda va hozirgi qoraqalpoq tilining akademik grammatikasida bog‘lovchilarning xususiyatlari bir qadar yoritilgan. Q.Da‘wletbayev qoraqalpoq tilidagi bog‘lovchilarning grammatik

---

<sup>12</sup> O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12-jild. –Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2003. 499-b.

xususiyatlarini tadqiq qilib, bog'lovchilarni 5 turga: **jalg'astirwshi, qarsilas, ayirwshi, sebep-na'tiyje, sha'rt** bog'lovchilariga ajratadi, ularning har biriga mansub bog'lovchilarni alohida izohlaydi, gap bo'laklarini yoki qo'shma gap qismlarini bog'lash vazifalaridan kelib chiqib faktik materiallar orqali dalillaydi<sup>13</sup>.

90-yillardagi bog'lovchilar o'rganilgan tadqiqotlarda qiyosiy-tarixiy nuqtayi nazardan yondashish ko'zga tashlanadi. M.Da'wletov bog'lovchilarga munosabat bildirishda qiyosiy-tarixiy nuqtayi nazardan yondashib, **ga'hi, ga'** bog'lovchilarining qoraqalpoq tiliga o'zlashishi borasida chuqur tahlil olib boradi hamda bu bog'lovchilarning qoraqalpoq tilida rivojlanishi jarayonidagi turli o'ziga xosliklarni aniqlaydi. Mazkur olimning bog'langan qo'shma gaplar qismlarini bog'lab keluvchi bog'lovchilar tasnifiga bag'ishlangan tadqiqotlari ham bugungi kun uchun ahamiyatlidir<sup>14</sup>. E.Da'wenovning qoraqalpoq tilidagi yordamchi so'zlarga bag'ishlangan risolasida ham bog'lovchilar haqida qimmatli fikrlar bayon qilingan<sup>15</sup>.

Qoraqalpoq tilshunosligida XXI asr boshlarida bog'lovchilarning o'rganilishi borasida muhim qadamlar qo'yildi, xususan, mustaqil so'z turkumlaridan bog'lovchilarga o'tgan so'zlar haqidagi tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, K.A.Bekbergenovning tadqiqotlarida hozirgi qoraqalpoq tilida bog'lovchiga o'tgan otlar, sonlar, olmoshlar, ravishlar, fe'llar, yuklamalar haqidagi mulohazalari bayon qilingan va so'nggi yillarda qoraqalpoq tilidagi bog'lovchilar tarkibi vazifadosh bog'lovchilar hisobiga boyib borayotganligi ta'kidlangan.

Yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek va qoraqalpoq tilidagi bog'lovchilar qiyosiy o'rganilgan tadqiqotlar har ikki tildagi ayni yoki o'xshash ko'rinishga ega hodisalarning spesifik belgilarini aniqlash imkonini beradi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Biz ishimizda har ikkala tilda barobar qo'llanadigan teng bog'lovchilar, o'zbek tilidagina qo'llanadigan teng

<sup>13</sup> Da'wletbayev Q. Qoraqalpoq tilinde da'nekerlerdin' grammatikalıq o'zgeshelikleri haqqında. //Xabarshi. 1968. -№4. – B. 93-94.

<sup>14</sup> Da'wletov M. Da'nekerli dizbekli qospa ga'ptin' struktura-semantikalıq tu'rleri. – Xabarshi. 1991. №1. – B. 105-110.

<sup>15</sup> Da'wenov E. Qoraqalpoq tilinde ko'mekshi so'zler. – No'kis, 1994.

bog'lovchilar (asl va funksional bog'lovchilar), qoraqalpoq tilidagina qo'llanadigan teng bog'lovchilar (asl va funksional bog'lovchilar), o'zbek va qoraqalpoq tillarida qo'llanadigan teng bog'lovchilar semantikasi, teng bog'lovchilarning sintaktik guruhlarni (uyushiq bo'lak va gaplarni) bog'lashi, har ikki tilda qo'llanadigan teng bog'lovchilarning semantik guruhlari, o'zbek (qoraqalpoq) tilidan qoraqalpoq (o'zbek) tiliga tarjima qilingan asarlarda teng bog'lovchilardan foydalanish imkoniyatlari kabi masalalar atrofida lisoniy tadqiqot olib borishni **maqsad** qildik. Shu asosda quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi bog'lovchilarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-nazariy ishlarni tanqidiy nuqtayi nazardan o'rganib chiqish va ularni hozirgi tilshunoslik erishgan yutuqlar asosida baholash, Ularni tanqidiy aspektda o'rganib, bundagi mavjud fikrlarga munosabat bildirish;

- o'zbek adabiy tili singormanizmga asoslangan til emasligini nazarda tutgan holda bog'lovchilarning qoraqalpoq tillaridan farqli jihatlarini ko'rsatib berish;

- qoraqalpoq tili singormanizmga qat'iy amal qiladigan tillardan biri ekanligi va unda bog'lovchilarning variantlari miqdor jihatdan ko'pligining sabablarini izohlash va ildizlarini qayd qilish;

- har bir bog'lovchining semantik ma'nolari va ularni o'zga (qoraqalpoq) til materiallari bilan qiyoslagan holda mushtarak va tafovutli holatlarini aniqlash;

- semantik-stilistik ma'nolarning tillararo va tillar ichra farqlanish va o'xshash jihatlarini namoyon etish va uni lisoniy tahlil metodlari asosida qayta ko'rib chiqish;

- qiyosiy tahlil vositasida bog'lovchilarning funksional almashinib qo'llanilishi holatlarini qayd qilish, ularning ma'no farqlarini tushuntirish va h. k.

**Tadqiqot obyekti va materiallari.** Tadqiqot obyekti o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi bog'lovchilar va ularning shakliy-funksional asoslarini qiyosiy planda o'rganish, shakliy unsurlarning funksional holatlarini yuzaga keltirishdagi rolini ko'rsatib berishdan iborat. O'zbekiston Qahramoni T.Qayipbergenovning «Qoraqalpoqnoma» asari hamda bu asarning tarjimon R.Otayev tarjima qilgan o'zbekcha varianti ishga asos qilib olindi.

**Tadqiqotning yangiligi.** Tadqiqotda o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi bog‘lovchilar ilk bora qiyosiy aspektda o‘rganilmoqda. Unda maxsus yo‘nalishda, o‘tgan asrning 60-90-yillarida til kategoriyalariga bo‘lgan munosabat qayta ko‘rib chiqilib, hozirgi davr g‘oyalari, nuqtayi nazarlari, qarashlari har ikki tilda bog‘lovchilarni belgilash nazariyasi tahlilga tortildi. Zero, bunday tadqiqot har ikki tilshunoslik uchun qimmatli materiallar berishi, ularni yangi bilimlar, qarashlar, ilmiy g‘oyalar bilan mukammallashtirishi, bo‘sh joylarini to‘ldirishi mumkin.

**Tadqiqot metodlari.** Magistrlilik dissertatsiyasini yozishda Prezidentimiz I.A.Karimovning til, tarix, milliy mafkura va milliy g‘oya, ma‘naviyat, ma‘rifat haqidagi asarlarida, nutqlarida ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalar asosiy metodologik tayanch vazifasini o‘tadi. Shuningdek, unda qiyosiy-tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, tasviriy, lisoniy tahlil metodlari ham qo‘llanildi.

**Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar.**

– qiyosiy planda o‘rganilayotgan til hodisalaridan chiqariladigan xulosalar har ikki til tilshunosligi uchun noyob materiallar berishi;

– qiyosiy aspektdagi ish har ikkala tilga katta material bo‘lib qo‘shilishi, undan olingan natijalar mazkur tillar grammatikalarini, o‘quv qo‘llanmalarini katta ko‘rsatmali misollar bilan boyitishi mumkinligi va hokazolar.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ishning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda keltirilgan materiallar o‘zbek va qoraqalpoq tillarining qiyosiy grammatikasini yaratishda amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ta’kidlash joizki, mazkur ishimizdan qoraqalpoq va o‘zbek tili grammatikasi bo‘yicha magistratura mutaxassisligi va bakalavr ta’lim yo‘nalishi uchun tuziladigan o‘quv dasturlariga qo‘llanma sifatida foydalanish mumkin. Har ikki tilning davlat tili sifatida o‘qitilishi inobatga olinganda ishning o‘qish-o‘qitish jarayonida muhim amaliy manba bo‘lishi shubhasizdir.

**Ishning sinovdan o‘tishi.** Tadqiqot bo‘yicha 1 ta maqola e’lon qilingan, ish O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dastlabki sinovdan o‘tib himoyaga tavsiya qilingan.

Ishning umumiy hajmi ...bet bo‘lib, u kirish, 2 ta bob, umumiy xulosalar, adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## **I BOB. O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA QO‘LLANADIGAN TENG BOG’LOVCHILAR TAVSIFI**

### **1.1. Teng bog’lovchilarni belgilash nazariyasi to‘g’risida**

O‘zbek va qoraqalpoq tillarida bog’lovchilar an’anaviy tilshunoslikda shakliy-funksional tomondan ancha o‘rganilgan. Bu sohada ko‘pgina maqolalar, monografiya va qo‘llanmalar nashr qilingan. Ammo ulardagi barcha holatlar aniq, ular oxirigacha o‘z yechimini topgan deyish qiyin. Shu bilan birga turkiy tillarda turli til sathlari va hodisalaridagi mushtaraklik, yaqinlik hamda ulardagi farqlar, bu tillarning genetik hamda tipologik qarindoshligini ko‘rsatuvchi holatlar, shuningdek, turkologiyaning hozirgi muammolari, tillar tasnifiga ko‘ra bir guruhga mansub turkiy tillarning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish, umumlashtirish va tahlil etish, xususan, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi teng bog’lovchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini bayon qilishda, dastavval, mavjud adabiyotlardagi har ikki tilda bog’lovchilarning belgilanishi haqida xulosalarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek filologiyasi bakalavr ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun tayyorlangan, mualliflarning qayd qilishlaricha, o‘zbek tilshunosligining ma‘lum bir bosqichini (jumladan, formal-funksional, substansial yo‘nalishdagi tadqiqotlarni) yakunlovchi ish deb hisoblangan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasida: “Mavjud adabiyotlarda bog’lovchining turi va bu turga qaysi so‘z mansubligi masalasida turlicha nuqtayi nazar bor, ya‘ni bir tadqiqotda bog’lovchi deb berilgan birlik boshqasida yuklama qatoriga kiritiladi, ko‘makchi deb berilgan birlik bog’lovchi deb tan olinadi. Bog’lovchiga oid so‘zning aniq belgilanmasligi sababi ular lison-nutq jihatidan o‘rganilmaganligida bo‘lsa kerak”, – deb fikr bildirilgan<sup>16</sup>.

---

<sup>16</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva P.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2009. –274 b.

Darhaqiqat, kuzatishlarimiz har ikki tilda bog'lovchilarni belgilashda tilshunoslarning nuqtayi nazarlari xilma-xil ekanligini dalilladi.

Bog'lovchilar grammatik jihatdan o'zgarmaydigan va mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'zlardir. Ularning muhim xususiyatlari shundaki, ular o'zlari bog'lagan ayrim so'zlar va sodda gaplarni o'zaro qanday munosabatda ekanliklarini ko'rsatish bilan birga, shu munosabatlarning xilini ham ko'rsatib turadi. O'zbek tilining akademik grammatikasida bog'lovchilar qo'shma gap tarkibidagi ayrim sodda gaplar va uyushgan bo'laklar orasidagi turli munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanadigan yordamchi so'zlardir – deb izohlanadi<sup>17</sup>.

Barcha darslik va o'quv qo'llanmalarda bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra 2 turi: teng bog'lovchilar va ergashtiruvchilar ajratilgan. Bizning tadqiqotimiz obyekti bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra teng bog'lovchi sanaladigan turi bo'lganligi sababli, asosan, shu bog'lovchilarning tavsifi haqida so'z yuritamiz.

Ma'lumki, teng bog'lovchilar gap bo'laklari va ayrim sodda gaplar orasidagi teng munosabatlarni ifodalaydi. Bunday bog'lovchilar:

a) gapning uyushgan bo'laklarini bog'laydi: **Ona bilan bola – gul bilan lola (maqol)**

b) qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'laydi: **Hammasini tinglardim, ammo O'xshashini topmasdim aslo.**

Yaqin yillargacha o'zbek tilida teng bog'lovchilar quyidagi guruhlarga bo'lib kelindi: 1) birlashtiruvchi bog'lovchilar: **va, hamda (bog'lovchi vazifasida kelgan bilan ko'makchisi, ham yuklamasi)** 2) zidlovchi bog'lovchilar: **ammo, lekin, biroq, balki, faqat, holbuki** 3) ayiruv bog'lovchilar: **yo, yoki, yoxud, yoinki, dam-dam, ba'zan-ba'zan, ham-ham, bir-bir, goh-goh, xoh-xoh**<sup>18</sup>.

<sup>17</sup> O'zbek tili grammatikasi. 1-jild. Morfologiya. –Toshkent, Fan, 1975. 566 b.

<sup>18</sup> O'zbek tili grammatikasi. 1-jild. Morfologiya. –Toshkent, Fan, 1975. 567 b.

Bizningcha, zidlov bog'lovchisi sifatida ko'rsatilgan faqat so'zi yanglish shu qatorga kiritilgan. Chunki, mualliflar zidlov bog'lovchilari xususiyatlarini alohida tavsiflash jarayonida bu so'zga alohida to'xtalmaganlar. O'zbek tili grammatikasiga bag'ishlangan boshqa hech bir tadqiqotda mazkur so'zning zidlov bog'lovchisi sifatidagi vazifasi qayd qilinmagan. Ammo qoraqalpoq tilida mazkur so'z bog'lovchilar sirasiga kiritilgan. Bu haqda keyin alohida to'xtalamiz.

“Hozirgi o'zbek adabiy tili” mualliflari ham teng bog'lovchilarni 3 turga ajratishni ma'qul ko'rganlar: **1. Biriktiruvchi bog'lovchisi: va, -u, -yu, hamda. 2. Ayiruv bog'lovchilari: yo, yoki, yoxud, goho, dam...dam, bir...bir, ba'zan...ba'zan. 3. Zidlov bog'lovchisi: ammo, lekin, biroq**<sup>19</sup>.

So'nggi yillarda teng bog'lovchilarning tasnifi ham yangilandi, ya'ni aksariyat o'quv qo'llanmalari, shuningdek, maktab darsliklarida teng bog'lovchilar 4 turga ajratilib berilmoqda. Xususan, O'zMEda bog'lovchi (grammatikada) yordamchi so'z ekanligi, gap va gap bo'laklarini bir-biriga bog'lashi, ishlatilishiga ko'ra a) yakka bog'lovchilar (“va”, “ammo”, “lekin”, “agar”, “chunki”, “uchun” va b) takrorlanuvchi bog'lovchilar (“ba'zi...ba'zi”, “bir...bir”, “goh... goh”, “yo...yo” va boshqa)ga bo'linishi, grammatik ma'no va vazifasiga ko'ra teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga ajratilishi ko'rsatilib, teng bog'lovchilar “va”, “hamda” – biriktiruv bog'lovchilari (bahor keldi va daraxtlar uyg'ondi); “ammo”, “lekin”, “biroq”, “balki” – zidlovchi (u ishga bordi, biroq ishlamadi.); “yo”, “yoki”, “yoxud”, “goh...goh”, “dam...dam” – ayiruv bog'lovchilari (dam havo ochiladi, dam yomg'ir yog'adi); – inkor na...na (na yomg'ir yog'adi, na qor yog'adi) bog'lovchisi ajratiladi. Shuningdek, biriktiruvchi bog'lovchilar vazifasini “ham” “-u”, “-yu” yuklamalari bajarishi mumkinligi, “-u”, “-yu” yuklamasi zidlovchi bog'lovchi vazifasida ham kelishi ko'rsatilgan<sup>20</sup>.

<sup>19</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva P.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2009. –275 b.

<sup>20</sup> O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-jild. –Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 199-200b.

Sh.Rahmatullayevning “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” darsligida bog‘lovchilar qatorida va, bilan, ammo, lekin, biroq, yo, yoki, goh...goh. dam...dam kabilar keltirilgani holda hamda, yoxud, ba‘zan... ba‘zan, bir...bir, xoh...xoh, na...na, ham, -u, -yu kabilar sanab o‘tilmaydi<sup>21</sup>.

Biz yuqorida maktab darsliklariga ham teng bog‘lovchilarning yangi tasnifi kiritilganligini aytib o‘tgan edik. Bular:

- 1) biriktiruv bog‘lovchilari: **va, hamda, bilan, ham;**
- 2) zidlov bog‘lovchilari: **ammo, lekin, biroq, balki;**
- 3) ayiruv bog‘lovchilari: **yoki, yo...yo, goh...goh, dam...dam, bir...bir, ba‘zan...ba‘zan, xoh...xoh;**
- 4) inkor bog‘lovchisi: **na...na**<sup>22</sup>.

Bu guruhlarga mansub so‘zlarning aksariyati bog‘lovchi sifatida darslik, o‘quv qo‘llanmalari va monografik tadqiqotlarda izohlangani bois ularning har biri haqida to‘xtalib o‘tish ortiqchadir. Ammo teng bog‘lovchilarning ma‘no va vazifa tomoni, imlo xususiyatlari darslik va qo‘llanmalarda atroflicha bayon etilgan bo‘lsa ham, o‘zbek tilshunoslari teng bog‘lovchilarni belgilash borasida har xil nuqtayi nazarlarini bayon qilmoqdalar. Bu holat **balki** yordamchisini bog‘lovchi sifatida qarash yoki faqat modal so‘z sifatida tan olish borasidagi masalada yaqqol ko‘rinadi.

O‘zbek tilining akademik grammatikasida: **balki** bog‘lovchi sifatida gaplarni bog‘laganda, birinchi (oldingi) gapda ifodalangan fikrni tasdiqlaydi yoki inkor qiladi, – deb izohlangan va “Lekin bu musiqa jim-jimalikni buzmas, balki uni quyultiradi (Oybek)” gapi misol tariqasida keltiriladi.

<sup>21</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, Univesitet, 2006. – 130-131-betlar.

<sup>22</sup> Ona tili: Umumta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov va boshq. – T.: Ma‘naviyat, 2009. – 72 b.

Mualliflar balki soʻzning baʼzan ehtimollik, gumon, ishonchsizlik maʼnolarini anglatishini ham eʼtiborga olib, “Siz balki mening tilimga tushunarsiz (A.Qahhor)” gapini namuna sifatida keltiradilar.

Balki soʻzining bogʻlovchi ekanligini izohlash jarayonida gapda mazmunan zid boʻlaklarni bogʻlash uchun ishlatilishi aytilib, Bu qir Astraxan yoki Sol qirlari singari tep-tekis emas, **balki** past-baland qirlar edi (A.Fadeev) gapi misol sifatida olingan va balki soʻzining qarama-qarshi maʼnoli gap boʻlaklari orasida kelganda tushirilib qoldirilishi mumkinligi, u holda gapning umumiy mazmuniga putur yetmasligi, taʼkid, ajratib koʻrsatish maʼnosi yoʻqolishi haqida maʼlumot beriladi: Bu qir Astraxan yoki Sol qirlari singari tep-tekis emas, past-baland qirlar edi (A.Fadeev)

Bir guruh olimlar: Balki qoʻllanishidagi baʼzi xususiyatlariga koʻra, zidlov bogʻlovchilaridan farq qiladi. Zidlov bogʻlovchilari koʻpincha qoʻshma gap qismlarini bogʻlaydi, balki yordamchisi bunday vazifani bajarmaydi: Havo bulut boʻldi, **lekin (ammo, biroq)** yomgʻir yogʻmadi. Bu misolda zidlov bogʻlovchisi oʻrnida balki soʻzini qoʻllab boʻlmaydi. Balki soʻzi gumon mazmunli gaplarda, zid mazmunli qismlarga ega gaplarda gumon, qarama-qarshilik maʼnolarini taʼkidlash uchun qoʻllanadi, deb hisoblaydilar va “Balki tanishlaringiz bordir. (Oyb.)”, “Chunki biz Azizbek kabilardan xalqningina emas, balki oʻzimizni ham qiynatdirmogʻdamiz. (A.Qod.)” kabi gaplarni misol sifatida keltiradilar<sup>23</sup>.

Umumtaʼlim oʻrta maktablarining ona tili darsliklarida balki soʻzi bogʻlovchilar qatorida ham, modal soʻzlar qatorida ham sanalgan. 7-sinf ona tili darsligida balki soʻzining ham bogʻlovchi, ham modal soʻz vazifasini bajarishi<sup>24</sup>, koʻpincha zidlov bogʻlovchisi vazifasida qoʻllanishi<sup>25</sup> aytilib, modal soʻzlar oʻrganiladigan mavzu doirasida gumonni anglatuvchi modal soʻz sifatida sanab oʻtilgan<sup>26</sup>.

<sup>23</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva P.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2009. –275 b.

<sup>24</sup> Ona tili: Umumtaʼlim maktablarining 6-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. – T.: Maʼnaviyat, 2009. – 73 b.

<sup>25</sup> Oʻsha manba. 77-b.

<sup>26</sup> Oʻsha manba. 104-b.

Bizningcha, balki bog'lovchisini zidlov bog'lovchilar bilan almashtirib qo'llash mumkin bo'lgan hollarning barchasida bog'lovchi sifatida, so'zlovchining anglatayotgan fikriga munosabatini ifodalagan, gapga butunicha taalluqli bo'lgan holatlarning barchasida modal so'z deb qarash lozim.

Na...na inkor bog'lovchilar sirasiga kiritilishi masalasi ham bahstlabdir. Mazkur so'zlar o'zbek tili grammatikasida inkor yuklamasi sifatida berilgan. Uyushiq bo'laklar yoki ayrim sodda gaplar oldida takrorlanib kelib, bu bo'laklar yoki gaplar anglatgan inkor ma'nosini uqtirib ko'rsatadi, deb izohlangan<sup>27</sup>. Mazkur grammatikada **na... na** faqat yuklama deb qaralgani holda, bog'lovchi vazifasida kelishi mumkinligi ko'rsatib o'tilmagan.

7-sinf ona tili darsligida inkor bog'lovchisi uchun uyushiq bo'lak va gaplarni inkor ma'nosini yuklagan holda bog'lovchi na...na yordamchisi inkor bog'lovchisi sanaladi. Bunda gapning kesimi tasdiq shaklida bo'ladi<sup>28</sup>, – degan ta'rif berilgan bo'lsa, yuklamalar o'rganilar ekan, “gap mazmunidagi inkor ma'nosini uqtiruvchi **hech, sira, aslo, na...na** kabi so'zlar inkor yuklamalari sanaladi. Bunday yuklamalar qo'llanganda, gapning kesimi, asosan, inkor shaklida bo'ladi”, – degan izohni o'qiyimiz. Bizningcha, **na...na** so'zlari aksariyat hollarda kesim tasdiq yoki inkor shaklda bo'lishidan qat'iy nazar gapda inkor ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilishini inobatga olib bog'lovchi sifatida emas, balki yuklamalar qatorida qaralgani ma'qul ko'rinadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili morfologiyasiga bag'ishlangan ishlarda bog'lovchilar qo'llanishiga, vazifasiga ko'ra guruhlanib kelindi. Biz yuqorida havolada ko'rsatgan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” o'quv qo'llanmasida bog'lovchilarning guruhlanishi bo'yicha yangi turi, ya'ni bog'lovchilar shakliy jihatdan uch guruhga: sof bog'lovchi, nisbiy bog'lovchi, qo'shimchasimon bog'lovchi tarzida ajratib ko'rsatilgan<sup>29</sup>. **Va, hamda, yo, yoxud, yoki, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, agar, ya'ni** kabilar sof bog'lovchi; **-ki, -**

<sup>27</sup> O'zbek tili grammatikasi. 1-jild. Morfologiya. –Toshkent, Fan, 1975. 581 b.

<sup>28</sup> Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. – T.: Ma'naviyat, 2009. – 79 b.

<sup>29</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva P.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2009. –274 b.

**kim, -u, -yu, -da, -mi** kabi bog'lovchilar qo'shimchasimon; **ba'zan, bir vaqtida, hali, goh, goho** kabi so'zlarning takroriy shakli nisbiy bog'lovchilar sirasiga kiritilgan.

Mazkur guruhlashda sof bog'lovchilar qatorida sanalayotgan **va, hamda, yo, yoxud, yoki, ammo, lekin, biroq** so'zlari; qo'shimchasimon bog'lovchilar: **-u, -yu, -da**; nisbiy bog'lovchilar deb qaralayotgan takrorlanib qo'llanadigan **ba'zan, goh, goho** kabi so'zlar teng bog'lovchilardir.

Qoraqalpoq tilshunosligida bog'lovchilar va ularning grammatik ma'nolari to'g'risida nazariy ma'lumotlar berilgan ishlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu ishlarda nazariy ma'lumotlar umumiy tarzda berilgan, lekin qoraqalpoq adabiy tiliga oid bog'lovchilar aniq ko'rsatilgan emas.

Qoraqalpoq tilshunosligida bu muammo goh tor yo'nalishda, goh kengroq planda o'rganilgan, deyish mumkin. Qoraqalpoq tilida bog'lovchilar dastlab umumlashgan tarzda, so'ng bog'lovchilarning turlari, xususiyatlari, sintaktik vazifalari kabilar bo'yicha maxsus tekshirish olib borilgan. Jumladan, Q.Da'wletbayev<sup>30</sup>, M.Da'wletov<sup>31</sup>, Q.A.Bekbergenov, E.Da'wenovlarning ilmiy tadqiqotlarida, oliy o'quv yurtlariga bag'ishlangan darsliklarda<sup>32</sup> va shuningdek, hozirgi qoraqalpoq tilining akademik grammatikasida<sup>33</sup> bog'lovchilarning ma'no, vazifa va tuzilishi jihatidan xillari kabi masalalari muayyan darajada yoritilgan. Q.A.Bekbergenov shunday yozadi: Bog'lovchilar o'zlari bog'lab kelgan gap a'zolari va sodda gaplarning o'zaro munosabatlarini anglatadi. Ular umummorfologik tuzilishi jihatidan, shuningdek, ma'nosi jihatidan ham yordamchi so'zlarning boshqa turlariga yaqin bo'lgani bilan o'zining asosiy xususiyatlariga qarab alohida grammatik kategoriya sifatida qaraladi.

<sup>30</sup> Da'wletbayev Q. Qaraqalpaq tilinde da'nekerlerdin' grammatikalıq o'zgeshelikleri haqqında. //Xabarshı. 1968. -№4. – B. 93-94.

<sup>31</sup> Da'wletov M. Da'nekerli dizbekli qospa ga'ptin' struktura-semantikalıq tu'rleri. – Xabarshı. 1991. №1. – B. 105-110.

<sup>32</sup> Da'wenov E. Qaraqalpaq tilinde ko'mekshi so'zler. – No'kis, 1994.

<sup>33</sup> Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tilinin' grammatikasi. – No'kis. Bilim, 1994. –362 b.

Bog'lovchilar yordamchi so'zlarning boshqa turlari kabi leksik ma'noga ega emas, alohida gap a'zosi ham bo'la olmaydi<sup>34</sup>.

E.Da'wenov ham N.A.Baskakovning bog'lovchilarning boshqa yordamchi so'zlar kabi dastlab lug'aviy ma'noga ega bo'lganligi haqidagi fikrlariga tayanadi. Olim hozirgi kunda ham ayrim bog'lovchilarning ham mustaqil so'z sifatida, ham bog'lovchi sifatida qo'llanishini alohida ta'kidlaydi.

E.Da'wenov bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra ko'makchilar va yuklamalarga bir qadar o'xshashligini aytib o'tadi. Shu bilan birga, mazkur yordamchi so'zlardagi asosiy farqlarni ajratib ko'rsatadi: ko'makchilar o'zi bilan birgalikda kelgan so'zlarning ma'lum bir kelishik shaklida bo'lishini taqozo qilsa, yuklamalar o'zlari qatnashgan so'zlarga qo'shimcha ma'no yuklashini, ularning ma'nosini kuchaytirib kelishini ta'kidlaydi<sup>35</sup>.

70-yillar qoraqalpoq tilshunosligida bog'lovchilar so'z va so'zni va gap bilan gapni bog'lashi va mazmuniga ko'ra 8 turga ajratilgan:

1) biriktiriv; 2) qarsilas; 3) na'wbetles; 4) sebeplik; 5) waqitliq; 6) salıstırıw; 7) na'tiyje; 8) sha'rt<sup>36</sup>.

**Ja'ne, ja'ne de, ha'm, ha'm de, tag'ı, sonnan son', -da, -de, -ta, te, menen, benen, penen kabilar biriktiriv; biraq, biraq ta, jalg'ız-aq, lekin, tek, tek te, al, ba'lki, son da, so'ytse de, bolmasa, o'ytpegende, degen menen, solay da kabilar qarsilas; ya, yaki, ga', geyde, ga'de, birese, yamasa, bazda na'wbetles; sebebi, o'ytkeni, nege desen' sebeplik; onnan keyin, sonnan beri, onnan son', sonnan son (keyin) waqitliq; qanshelli, sonshelli, qansha, sonsha, neg'urlim, solg'urlim salıstırıw; sonin' ushın, bunn' ushın, onın' ushın, sonlıqtan, sol sebebli na'tiyje; eger, egerde sha'rt bog'lovchilari deb qaralgan<sup>37</sup>.**

80-yillarda nashr qilingan "Hozirgi qoraqalpoq tili" darsligida bog'lovchilarning tasnifi yuqoridagi tasnifdan farqlanadi:

<sup>34</sup> Bekbergenov Q.A. Ha'zirgi qaraqalpaq tilinde da'nekerge o'tken so'z shaqapları.

<sup>35</sup> Da'wen ulı Ernazar. Qaraqalpaq tilinde ko'mekshi so'zler. – No'kis, 1994. 48-b.

<sup>36</sup> Ha'zirgi qaraqalpaq tili. 1-bo'lim. Morfologiya. – No'kis. Qaraqalpaqstan, 1974. 260 b.

<sup>37</sup> Ha'zirgi qaraqalpaq tili. 1-bo'lim. Morfologiya. – No'kis. Qaraqalpaqstan, 1974. 260-265 b.

Qarsilas: **birraq, biraq ta, al, degen menen, sonda da, so'ytse de, tek, lekin, ba'lkim**; gezekles: **birese, birde, bir, geyde, bazda, ga'**; awıspalı: **ya, yamasa, bolmasa, meyli, ne, yaki**; sebeples: **sebebi, o'ytkeni, sonlıqtan, sol sebepli, sonn' ushın**; sha'rt: **eger, egerde**; ing'aylas: **ja'ne, tag'ı, ha'm, da, de, ta, te, menen** so'zlari bog'lovchilar sifatida guruhlangan<sup>38</sup>. E'tibor qaratish joizki, **jalg'ız-aq** so'zi qarsilas bog'lovchisi sifatida emas, balki na'wbetles bog'lovchisi sifatida qaralgan **ga', geyde, birese, bazda** na'wbetles bog'lovchilari gezekles bog'lovchilari deb hisoblangan. Avvalgi tasnifda na'wbetles bog'lovchisi bo'lgan **ya, yaki, yamasa** bog'lovchilari awıspalı bog'lovchilar qatoriga kiritilgan, **bolmasa** bog'lovchisi qarsilas bog'lovchisi safidan chiqarilib awıspalı bog'lovchi deb qaralgan. **Sebebi, o'ytkeni** sebeples bog'lovchilari qatoriga keyingi tasnifda **sonlıqtan, sol sebepli, sonn' ushın** so'zlari qo'shilgan. Avval biriktiruv bog'lovchisi deb hisoblanagan bog'lovchilar ing'aylas ataması ostiga birlashtirilgan. Yangi tasnifda **birde, bir, meyli, ne** kabi so'zlar bog'lovchilar safiga qo'shilgan bo'lsa, **jalg'ız-aq, o'ytpegende, solay da, nege desen', onnan keyin, sonnan beri, onnan son', sonnan son' (keyin), qanshelli, sonshelli, qansha, sonsha, neg'urlım, solg'urlım, sonn' ushın, bunin' ushın, onn' ushın, sonlıqtan** kabi so'zlar bog'lovchilar safidan chiqarilgan. Har ikki tasnifni qiyoslaganda faqat shart bog'lovchisigina hech qanday o'zgarishsiz qolganligi ma'lum bo'ladi.

90-yillarga kelib "Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tilinin' grammatikasi" yaratilib, unda bog'lovchilar, avvalo, gapdagi sintaktik vazifasiga ko'ra ikkita katta guruhga ajratiladi: 1. **Dizbeklewshi da'nekerler**. 2. **Bag'ındırıwshı da'nekerler**.

E.Da'wenovning qoraqalpoq tilidagi yordamchi so'zlarga bag'ishlangan tadqiqotida bog'lovchilarni quyidagicha tasnif qiladi:

1. Bog'lovchilarning morfologik tuzilishga ko'ra turlari: 1) dara da'nekerler – sodda bog'lovchilar: **ya, yamasa** kabilar; 2) birikken da'nekerler – birikkan

---

<sup>38</sup> Ha'zirgi qaraqalpaq tili. Morfologiya. – No'kis. Qaraqalpaqstan, 1981. 247-256 b.

bog'lovchilar: **bir**aq – bir+aq, **o'ytkeni** – olay+etkeni; 3) quramali (sostavli) da'neker – murakkab, tarkibli bog'lovchilar **nege desen', sol sebepli**.

2. Bog'lovchilarning gapdagi sintaktik vazifasiga ko'ra turlari: 1) dizbeklewshi da'nekerler – teng bog'lovchilar; 2) bag'indirio'shi da'nekerler – ergashtiruvchi bog'lovchilar<sup>39</sup>.

Bizning tadqiqot obyektimiz bo'lgan teng bog'lovchilar dizbeklewshi da'nekerlarga muvofiq keladi. Mazkur bog'lovchilar 4 turga ajratilgan. Bular: 1) biriktirivshi da'nekerler; 2) qarsilas da'nekerler; 3) awıspalı da'nekerler; 4) gezekles da'nekerler<sup>40</sup>.

Biriktirivshi da'nekerler: **ha'm, ha'm de, ja'ne, ja'ne de, tag'ı, tag'ı da, menen (benen, penen), da (de, ta, te)**.

Qarsilas da'nekerler: **bir**aq, **lekin, al, sonda da, solay da, solay bolsa da, so'ytse de, degen menen**.

Awıspalı da'nekerler: **ya, yamasa, yaki, bolmasa, ya bolmasa, yaki bolmasa, ne, a'lle, meyli**.

Gezekles da'nekerler: **ga', ga'hi, geyde, ga'de, bazda, birese, birde, bir, a'ri**.

Qoraqalpoq tili tilshunosligi, xususan, grammatikasining so'nggi yillardagi tadqiqotlari asosida yaratilgan "Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tili" darsligida esa **al** so'zi ham biriktirivshi bog'lovchi sifatida qaralgan.

E.Da'wenov bog'lovchi vazifasida qo'llanadigan so'zlarga alohida tavsif beradi. Biroq olim so'zlarning bog'lovchi vazifasida keladigan aksariyat **qanday – sonday, qansha – sonsha, qalay – solay, qanshelli – sonshelli**, dep kabi mustaqil so'zlar qo'shma gap qismlarini bog'lash vazifasidagina qo'llanishi haqida

<sup>39</sup> Da'wen ulı Ernazar. Qaraqalpaq tilinde ko'mekshi so'zler. – No'kis, 1994. 49-b.

<sup>40</sup> Ha'zirgi qaraqalpaq adebiy tilinin' grammatikasi. – Nokis. Bilim, 1994. –362 b.

ma'lumot beradi<sup>41</sup>. Teng bog'lovchi vazifasidagi so'zlarni alohida guruhlamasa ham, har bir bog'lovchi xususiyatlarini bayon qilar ekan bog'lovchi vazifasidagi so'zlar borasida to'xtalib o'tadi. **Ja'ne, da, de, ta, te** kabilarning bog'lovchi vazifasida ham, yuklama vazifasida kela olishi, xarakterli jihatlari haqida o'z qarashlarini ifodalab, misollar bilan dalillaydi.

Umuman, qoraqalpoq tilshunosligida bog'lovchining turi va bu turga qaysi so'z mansubligi masalasida turlicha nuqtayi nazar mavjud, ya'ni bir tadqiqotda bog'lovchi deb berilgan birlik (masalan, **tek, tek te**<sup>42</sup>) boshqasida yuklama qatoriga kiritiladi (masalan, **tek, tek te**<sup>43</sup>).

Qoraqalpoq tili grammatikasi bo'yicha eng so'nggi nashr qilingan o'quv qo'llanmada bog'lovchi vazifasidagi so'zlar qatorida **ha'tte, ha'tteki, a'sirese, ne** kabi so'zlar sanaladi.

**Ha'tte, ha'tteki** so'zlari ayrim tadqiqotlarda bog'lovchi deb berilsa<sup>44</sup>, ba'zan kuchaytirma yuklamasi deb qaralgan<sup>45</sup>.

Ayrim so'zlarning bog'lovchilik tabiatidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki va kuzatishlarimiz shuni tasdiqlamoqdaki, o'zbek tilida ham, qoraqalpoq tilida ham, bog'lovchilarning miqdori, ularning mohiyati, turlari hanuzgacha aniq belgilanganmagan. Biz yuqorida bayon qilgan mulohazalarimizga ko'ra o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi quyidagi so'zlarni teng bog'lovchilar sirasiga kiritish lozim deb hisoblaymiz:

<sup>41</sup> Da'wen uli Ernazar. Qaraqalpaq tilinde ko'mekshi so'zler. – No'kis, 1994. 79-b.

<sup>42</sup> Ha'zirgi qaraqalpaq tili. 1-bo'lim. Morfologiya. – No'kis. Qaraqalpaqstan, 1974. 249 b.; Ha'zirgi qaraqalpaq tili. Morfologiya. – No'kis. Qaraqalpaqstan, 1981. 261 b.; Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tili. –No'kis, Bilim, 2010. 229-b.

<sup>43</sup> Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tilining grammatikasi. – No'kis. Bilim, 1994. –397-398 b.; Da'wen uli Ernazar. Qaraqalpaq tilinde ko'mekshi so'zler. – No'kis, 1994. 94-95-b. ; Bekbergenov A. Qaraqalpaq tilinde janapaylardin' klassifikatsiyasi haqqinda. // Xabarshi, 1992. № 2. – B.118-119.; Qoraqalpoq tilining izohli lug'atining 4-jildida tek so'zi ot va ravish so'z turkumi deb izohlangan: Qaraqalpaq tilinin' tu'sindirme so'zligi. – No'kis, Qaraqalpaqstan. 1992. 302-b

<sup>44</sup> Da'wletbayev Q. Qaraqalpaq tilinde da'nekerlerdin' grammatikalıq o'zgeshelikleri haqqında. //Xabarshi. 1968. -№4. – B. 93-94.; Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tili. –No'kis, Bilim, 2010. 229-b.

<sup>45</sup> Qaraqalpaq tilinin' tu'sindirme so'zligi. – No'kis, Qaraqalpaqstan. 1992. 476-b

1. O'zbek tilidagi teng bog'lovchilar: **va, hamda, bilan, ham, -u, -yu, -da, ammo, lekin, biroq, balki, holbuki, yoki, yo, yoxud, yoyinki, goh...goh, dam...dam, bir...bir, bazan...bazan, xoh...xoh.**

2. Qoraqalpoq tilidagi teng bog'lovchilar: **Ja'ne, ja'ne de, ha'm, ha'm de, tag'ı, da, de, ta, te, menen, benen, penen, biraq, biraq ta, lekin, al, ba'lki, ba'lkim, sonda da, solay bolsa da, so'ytse de, bolmasa, yamasa, ya bolmasa, yaki bolmasa, a'lle, ne, degen menen, onın' menen, solay da, ya, yaki, ga', ga'hi, geyde, ga'de, bazda, birese, birde, bir, a'ri, meyli,**

## **1.2. O'zbek va qoraqalpoq tillarida barobar qo'llanadigan teng bog'lovchilar**

O'zbek va qoraqalpoq tillari turkiy tillar oilasiga mansub tillar bo'lib, o'zbek tili qarluq guruhiga, qoraqalpoq tili esa qipchoq-no'g'ay guruhiga kiradi. Bu har ikki tilning fonetikasi, leksikasi, so'z yasalishi, grammatikasi va stilistikasida behad ko'p o'xshashliklar mavjud. Buni leksik va (fonetik) tovush jihatdan tubandagi faktlar isbotlaydi:

O'zbek tilida ota, opa, boja, kumush, bosh, tish, to'rt, tog`a.

Qoraqalpoq tilida: ata, apa, baja, gu'mis, bas, tis, to'rt, apa, dayi.

Yuqorida keltirilgan so'zlarning tovush va lug'aviy-ma'noviy qiyosi o'zbek va qoraqalpoq tillarini turkiy tillar oilasining o'g'uz, qipchoq guruhlariga kiritish uchun lisoniy asosdir. Qonuniyki, ayni holat O'rta Osiyo va Qozog'istondagi o'g'uz, qipchoq, qarluq guruhlariga kiruvchi o'zbek, qoraqalpoq, turkman, qozoq tillariaro o'xshashliklar mavjudligining dalilidir.

Mazkur qonuniyat o'zbek va qoraqalpoq tillariaro mushtaraklik va o'ziga xosliklarda namoyon bo'ladi.

Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, o'zbek va qoraqalpoq tillari fonetikasi va leksikasining tipologik tahlilidan kelib chiqib, ularni 4 turga ajratish mumkin:

**I. O'zbek va qoraqalpoq tillari uchun ham tovush va ham ma'no jihatdan bir xil bo'lgan so'zlar.**

**II. O'zbek va qoraqalpoq tillarida ma'no jihatdan bir xil bo'lib, tovush jihatdan farqlanuvchi so'zlar.**

**III. O'zbek va qoraqalpoq tillarida tovush va semantik jihatdan qisman farqlanuvchi so'zlar.**

**IV. O'zbek va qoraqalpoq tillarida tovush jihatdan o'xshash bo'lib, ma'no jihatdan tomomila farqlanuvchi so'zlar<sup>46</sup>.**

O'zbek va qoraqalpoq tillari qardosh tillar bo'lganligi bois bog'lovchilar orasida shakl va ma'no tomondan ancha o'xshash, yaqin bo'lgan bog'lovchilar mavjud. Shu bilan birgalikda semantik tomondan farqlanuvchi bog'lovchilar ham bor.

Yuqorida ko'rsatilgan to'rtta tasnif asosida o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi bog'lovchilarning mushtarak va farqli jihatlarini inobatga olib biz quyidagi guruhlarni ajratish mumkin deb hisobladik:

**I. O'zbek va qoraqalpoq tillari uchun ham tovush, ham ma'no va vazifasi jihatdan bir xil bo'lgan bog'lovchilar.**

**II. O'zbek va qoraqalpoq tillarida ma'no va vazifa jihatdan bir xil bo'lib, tovush jihatdan farqlanuvchi bog'lovchilar.**

**III. O'zbek va qoraqalpoq tillarida tovush jihatdan o'xshash bo'lib, ma'no va vazifa jihatdan tomomila farqlanuvchi bog'lovchilar.**

I. O'zbek va qoraqalpoq tillari uchun ham tovush, ham ma'no va vazifasi jihatdan bir xil bo'lgan bog'lovchilar **-da (o'zb) – -da, -de (-ta, te) (qq), ham (o'zb) – ha'm (qq), hamda (o'zb) – ha'm de (qq), biroq (o'zb) – biraq (qq) lekin (o'zb) – lekin (qq) bir (o'zb) – bir (qq), na (o'zb) – ne (qq) balki (o'zb) – ba'lkim (qq), yo (o'zb) –, ya (qq) – yoki (o'zb) yaki (qq), ga' (qq) – goh (o'zb), gohi (o'zb) – ga'hi (qq), ja'ne, ja'ne de (qq) – yana (o'zb)** kabilardir. Biz o'zbek tilidagi a, i, o` unlilarining qoraqalpoq tilidagi so'zlarda a-a', a-e, i-1, o-a harfiy shakllariga, ya'ni ularning qattiq-yumshoq talaffuz qilinishiga asoslandik. O'zbek tilida a unlisining dada tipidagi so'zlarda old qator, xalq tipidagi so'zlarda

---

<sup>46</sup> SH.Bo'ronova. «Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o'zbek tilini o'qitishning metodik asoslari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasiga yozilgan avtoreferat. – Toshkent, 2002.

esa orqa qator talaffuzi uchun ham birgina harfiy shakl qabul qilingan, uning talaffuzda ikki xil tovushni ifodalashi me'yor sanaladi. Shuning uchun biz o'zbekcha ham bog'lovchisining qoraqalpoq tilida ha'm bohlovchisini tovush qurilishi, ma'nosi va vazifasi bir xil bog'lovchilar qatoriga kiritdik.

Mazkur bog'lovchilar o'zbek va qoraqalpoq tili so'z boyligining – lug'atining umumturkiy leksik qatlamida ham, o'zlashma so'zlar qatlamida ham mavjud. O'zbek va qoraqalpoq tillarida yaratilgan badiiy asarlar tarjimasiga asoslanib mazkur guruhga mansub bog'lovchilarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

**-da** bog'lovchisi:

Oxir-oqibat ular, garchi jo'ngina tahqiromuz bo'lsa-**da**, har qalay yaratganning o'z og'zidan qoraqalpoq degan nomni eshitgan qadimiy makonlariga qaytib kelibdilar. (T.Q. 11-bet).

Aqir son'ında olar At qoyiwshinin' o'z awzinan jo'nekey ha'm ashıwlı bolsa **da** “Qaraqalpaq” degen atti esitken a'welgi ma'kanına qayta aynalıp keledi. (T.Q. 8-bet).

**Ham** bog'lovchisi: Mazkur bog'lovchi o'zbek tilida yakka holda ham takrorlangan holda ham kela oladi. Yakka qo'llanganda va bog'lovchisi bilan sinonimik holatda bo'lsa, takror qo'llanganda ayiruvchi bog'lovchi vazifasini bajaradi.

**Ham** bilimli, **ham** aqlli bo'lsang, buning ustiga kamgap, itoatkor bo'lsang, nodon boshliqlar seni loaqal o'zlariga yordamchi qilib olishga majbur bo'ladi. (T.Q. 292-bet).

Bilimli **ha'm** aqilli bolsan', og'an qosıla kemso'zli **ha'm** til alg'ısh bolsan', aqılsız basshılardıń seni, en' bolmasa, o'zine ja'rdemshi qılıp alıwg'a pa'mi alıladı. (T.Q. 262-bet).

Tanlangan misollardan ko'rinib turibdiki, har ikkala tildagi bog'lovchilar teng bog'lovchi sanalsa ham, o'zbekcha gapda ayiruvchi, qoraqalpoqcha gapda biriktiruvchi bog'lovchi sifatida qo'llangan.

Quyidagi misolda esa **ham** bog'lovchisining tarjimada **bilan** bog'lovchisi berilgan. Qalaliq bilimlendiriw bo'limi ha'm sudya ken'sesinin' esigi ba'rhama ashıq! (T.Q. 204-bet).

...shahar xalq maorifi bo'limi bilan sudya idorasining eshiklari hamisha ochiq! (T.Q.Qma.232-bet).

**Biroq** bog'lovchisi:

Bir paytlar suvdan qo'rqib qochganimni hech qachon esidan chiqarmagan onam: "Agar sen yaxshi suzishni o'rganmoqchi bo'lsang, mashqni sayozroq suvdan boshla, **biroq** har safar tanangni suvga o'rgatish uchun o'n ikki marta sho'ng'ib ol-da, keyin suzaver", – derdi.

Menin' bir ret suw'dan ko'zim qorqqanin hesh qashan esinen shıg'armaytug'in anam: "Eger sen jaqsı ju'ziwdi u'yrenbekshi bolsan', a'wele sayız suvdan basla, **biroq** ha'r saparı denen'di suwg'a u'yretiw ushın on eki ma'rtebe su'n'gip almay ju'ziwdi baslama", – deytug'in edi. (T.Q. 9-bet).

**Lekin** bog'lovchisi:

**Lekin** o'zingiz bu ayolning ovulda ma'lum va mashhur yengiltakligini bila turib, nega unga ta'zim qildingiz? – deb so'rabdi. (T.Q. 336-bet).

**Lekin**, bul hayaldın' awılg'a ma'lim laylaqı ekenin bile tura og'an nege bas iyesiz? – depti. (T.Q. 302-bet).

**Na** bog'lovchisi:

**Na** biron gap aytarkan, **na** va'da qilgan in'omini berarkan. (T.Q. 74-bet).

Aw salsan' **ne** tosqa jolıg'adı, **ne** ag'ıs jırtıp ketedi<sup>47</sup>.

**yo** bog'lovchisi:

Ko'pchiligi bir juft she'r yoki hikoya yozib, maqtov eshitdimi, tamom, **yo** burni ko'tariladi, **yo** o'zini o'zi maqtashga tushib ketadi. (T.Q. 293-bet)

Ko'bisi ya qosıq **ya** gu'rrin' jazıp maqtaw alaçoysa, ya iship ketedi, **ya** ko'ringenge maqtanıwg'a tırısadı.(T.Q. 263-264-betlar).

**Goh** bog'lovchisi:

---

<sup>47</sup> Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tilinin' grammatikasi. – No'kis. Bilim, 1994. – 379 b.

Yerdeklar qadamda bir chayqalib ko'nglimda **goh** yoz, **goh** kuz, **goh** qish, **goh** ko'klam hissi hosil qiladi: dam titrab qaqshayman, dam terlab-tepchiyman, dam allanechuk taskin-tasalli topgandek bo'laman. (T.Q. 7-bet)

Jer siyaqli, ha'r 1s1rg'anında samar bir qıymıldap, menin' kewlimde **ga'** jaz, **ga'** guz, **ga'** qıs, **ga'** ba'ha'r payda yetip birese qaltırayman, birese terleymen, birese tınıshlanaman. (T.Q. 5-bet)

Har oqshom aytiladigan hangomalar, ertag-u afsonalardan, jangdagi yigitlarning **goh** jo'rttaga mubolag'ador, **goh** rost gaplar yozilgan qiziq-qiziq xatlaridan so'ng qariyalar ham, o'rta yoshdagi kishilar ham, biz bolalar ham charchoqni unutamiz. (T.Q. 204-bet).

Ha'r keshedegı a'n'gimelerden, ertek-a'psanalardan soldatlardıń **ga'** jortag'a, **ga'** ıras pikirlerin bildiriwshi kewilli xatları oqılg'annan son' u'lkenler de, kishiler de, sharshag'anın bazı aqshamlarda so'ylesikler menen tan' atırıp uyqıları shala bolg'anına narazılıq bildirmeydi. (T.Q. 204-bet).

II. O'zbek va qoraqalpoq tillarida ma'no va vazifa jihatdan bir xil bo'lib, tovush jihatdan farqlanuvchi bog'lovchilar sirasiga **bilan (o'zb)**, **menen**, **benen**, **penen (qq)**, **ba'zan (o'zb)**, **bazda (qq)**, bog'lovchilarini kiritdik.

Tovush va leksik jihatdan qiyosiy tavsif uchun tanlangan bog'lovchilarning umumiy miqdori tasnifida har ikki tilda ma'nosi bir xil bo'lib, tovush jihatdan farqlanuvchi so'zlar miqdori 6 tani tashkil qildi. Ular rang-barang shakllar va murakkab tovush o'zgarishlarga uchragan so'zlardir. Bunday so'zlarning qiyosiy-tovush shakllari aniq bo'lsin uchun ularni quyidagicha guruhlarga ajratdik.

Ayrim unli tovushlariga ko'ra farqlanuvchi, lekin ma'nosi bir xil so'zlarning aksariyati o'zbek tilidagi bir qator so'zlarning qoraqalpoq tilida asosan a>e: bilan – menen singari tovush o'zgarishlar bilan talaffuzi va imlosi me'yor hisoblangan so'zlardir.

O'zbek va qoraqalpoq tillarida ayrim undosh tovush (harf)larga ko'ra farqlanuvchi, lekin ma'nosi va vazifasi bir xil bog'lovchilarda b-m, b-p, l-n undoshlarining farqlanishi, shuningdek, undosh tovushlarning tushishi kuzatiladi:

bilan – menen, penen. Bu kabi ayrim undoshlariga ko'ra farqlanuvchi so'zlar qoraqalpoq tilining tovush qonuniyati taqozosidir.

Ba'zi undosh hamda unli tovush (harf) lariga ko'ra farqlanuvchi ma'nosi bir xil so'zlar. O'zbek va qoraqalpoq tillarida ma'nosi bir xil so'zlar har ikki tilning tovush qonuniyatlari va imloviy tamoyiliga ko'ra ba'zi undosh hamda unli tovush (harf)larga ko'ra farqlanadi. Chunonchi, ari-ha'rre, mehmon-miyman, novvot-nabat, og'ir-awır, teshkich-teskish v.h. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek va qoraqalpoq tillarida ma'nosi bir, ayrim tovush farqlarga ega bo'lgan so'zlar arab, fors, tojik tillaridan kirgan so'zlardir<sup>48</sup>. Bizning tadqiqot obyektimiz bo'lgan o'zbek va qoraqalpoq tillarida ma'no va vazifa jihatdan bir xil bo'lib, tovush jihatdan farqlanuvchi teng bog'lovchilar ham arab va fors-tojik tillaridan kirib kelgan. Bunday so'zlarning aksariyati qoraqalpoq tilida o'zbek tiliga nisbatan ko'proq tovush o'zgarishlarga uchragan. O'zbek tilida esa bunday so'zlar imloning tarixiy-etimologik yoki grafik tamoyillarga ko'ra asliga muvofiq yoziladi. Demak, bunday so'zlar har ikki tilning imloviy tamoyillari asosida fonetik-leksik va grammatik me'yor sifatida qonunlashtirilganligi, qoidalashtirilganligi sababli, ular ma'nosi bir xil, lekin tovush jihatdan farqlanuvchi so'zlarni keltirib chiqaradi<sup>49</sup>.

Qoraqalpoq tilida o'zlashma bog'lovchilardagi unli va undosh tovushlarining rang-barang o'zgarishlarga uchraganligini bu tilda imloda tovush (fonetik) tamoyil ustuvorligi hamda turkiy talaffuz ixchamligi nazarda tutilganligi bilan izohlash o'rinli bo'ladi. O'zbek tilida esa bog'lovchilarning asli – o'zlashtirilgan tildagi shakli saqlab qolingan.

Bilan bog'lovchisi:

Aslida hayot deganlari – o't **bilan** suv, gul bilan tikan, quyosh **bilan** zulmat, kulgi **bilan** yig'i, insoniy ruh **bilan** hayvoniy ruh aralash-quralash tugilgan bir tugun. (T.Q. 103-bet).

---

<sup>48</sup> SH.Bo'ronova. «Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o'zbek tilini o'qitishning metodik asoslari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasiga yozilgan avtoreferat. – Toshkent, 2002

<sup>49</sup> SH.Bo'ronova. «Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o'zbek tilini o'qitishning metodik asoslari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasiga yozilgan avtoreferat. – Toshkent, 2002.

O‘mir – ot **penen** suw, gu‘l **menen** shengel, quyash **menen** tu‘n, ku‘lki **menen** ko‘z jas, adam ruwhi **menen** haywan ruwhi aralastirilip tu‘yilgen tu‘yinshik (T.Q. 93-bet).

**Ba‘zan** bog‘lovchisi:

III. Fonetik o‘xshash, ma‘no va vazifa jihatdan tamomila farqlanuvchi so‘zlar. Garchi o‘zbek va qoraqalpoq tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lsa-da, ammo ular ikki alohida-alohida guruhga – qipchoq va qarluq guruhiga kiritiladi. Shuning uchun bu har ikki tilda fonetik o‘xshash, ammo ma‘no va vazifa jihatdan farqlanuvchi so‘zlar ham mavjud. Bu ayniqsa qoraqalpoq tilida bog‘lovchi, o‘zbek tilida boshqa so‘z turkumlariga mansub deb hisoblanadigan bir qator so‘zlar doirasida yaqqol ko‘rinadi. Chunonchi: **tag‘i (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi) – tag‘in (o‘zbek tilida ravish), bolmasa (qoraqalpoq tilida bazan bog‘lovchi, bazan fel), bolmasa (o‘zbek tilida bo‘lishsiz fe‘l) tek (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi) – tek (o‘zbek tilida ravish), a‘tten‘ (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi) – attang (o‘zbek tilida undov so‘z), a‘lle (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi) – alla (o‘zbek tilida ot), ha‘tte (qoraqalpoq tilida badiiy adabiyotlarda bog‘lovchi deb ko‘rsatilgan, biroq yuklamalar qatoriga kiriltilishi maqsadga muvofiq) – hatto (o‘zbek tilida yuklama), ha‘tteki (qoraqalpoq tilida badiiy adabiyotlarda bog‘lovchi deb ko‘rsatilgan, biroq yuklamalar qatoriga kiriltilishi maqsadga muvofiq) – hattoki (o‘zbek tilida yuklama), meyli (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi) – mayli (o‘zbek tilida tasdiq so‘z), geyde, ga‘de (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi, ba‘zan ravish) – gohida, goho (o‘zbek tilida ravish), bazda (qq tilida bog‘lovchi) – ba‘zida (o‘zbek tilida ravish) birese, birde (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi) – birda (o‘zbek tilida ravish) a‘ri (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi) – ari (o‘zbek tilida ot), al ( qoraqalpoq tilida bog‘lovchi) – ol (o‘zbek tilida fe‘l)**

**Geyde** so‘zi bog‘lovchi sifatida kelgan:

Awizdan shiqqan bir so‘z **geyde** kisini bir yelatqa su‘ykimli qilip, **geyde** oni bir yelattan ko‘shiretug‘ini da hesh qanday da‘lil talap yetpeydi. (T.Q. 13-bet).

Tarjimada:

Og'izdan chiqqan bir kalima so'z odamni boshqalarga el qilishi ham, yov qilishi ham mumkin. (T.Q. 16-bet).

Mazkur holatda tarjimon asliyatdagi bog'lovchidan foydalanmagan holda, yuklamadan foydalanishni maqul ko'rgan.

**Geyde** so'zi quyidagi gapda asliyatda ham, tarjimada ham ravish sifatida qo'llangan:

Bunda tek o'zinnin' tu'siniwim ushin avtorlardin' atlarinnin' ya familiyalarnin' basqi, **geyde** son'g'i, ha'tte da'l o'rtang'ı ha'ribin-aq inisial yetip jazip bardim. (T.Q. 258-bet).

Qaysi gap kimga tegishlilikini faqat o'zimgina farqlashim uchun mualliflar ism-shariflarining bosh harflarini **goho** oxirgi, hatto teng o'rtasidagi harfini "Ismi sharif" sifatida yozib boraverdim. (T.Q. 289-bet).

**yo** bog'lovchisi

Sebebi basqa joldaslarima qarag'anda mag'an waqıt ku'ta' tar ko'rinetug'in edi, ku'nine belgili bir isti tamamlap **ya** bir kitaptı oqip u'lgere almay jan iynime ot tu'skeni, tu'sken edi (T.Q. 77-bet).

Sababi – boshqa tanish-bilishlarimga nisbatan o'zim uchun vaqt o'ta ziq, noyob bir ne'matdek tuyulardi. Har kuni belgilangan bir ishni tugallab **yo** biron bir kitobni o'qib bitirolmay shoshganim shoshgan edi (T.Q. 87-bet).

Tarjimada yo bog'lovchisi asliyatda **bolmasa** bog'lovchisi bilan, qo'llangan.

Mehmon kelmagan kuni u meni ergashtirib ko'cha biyining uyiga borardi **yo** bo'lmasa uni uyiga chaqirib qaytardi. (T.Q. 78-bet).

Qonaq kelmegen kuni ol meni yertip ko'she biyinin' u'yine ketedi, **bolmasa**, onı u'yge mira't yetip qaytadı. (T.Q. 69-bet).

### 1.3. O'zbek va qoraqalpoq tillarida farqli teng bog'lovchilar (asl va funksional bog'lovchilar)

Turkiy tillardagi bog'lovchilarning hammasi yagona bitta turkiy tilgagina taalluqli bo'lmaganidek, ayrim bog'lovchilar ko'pchilik turkiy

tillarga xos bo'lsa, ba'zi bog'lovchilar alohida turkiy tillardagina uchraydi. Sababi, turkiy tillar aglyutinativ tillar guruhiga kirgani va turkiy xalqlar qadimdan o'zaro munosabatda bo'lganligidan turkiy tillar bog'lovchilarida mushtaraklik hosil bo'ladi. Ammo har qaysi turkiy til o'zining ichki qonuniyatiga ko'ra rivojlangani uchun har qaysi turkiy tilga xos bog'lovchilar mavjud. Masalan, bizning tadqiqot obektimiz bo'lgan va teng bog'lovchisi o'zbek tilida qo'llanadi, qoraqalpoq tilida mazkur bog'lovchi o'rnida ham bog'lovchisi faol ishlatiladi.

O'zbek va qoraqalpoq tillari qardosh tillar bo'lsa ham, ularning grammatik tuzilishida o'ziga xoslik anchagina. Bu har ikkala tildagi bog'lovchilarni tahlil qilish jarayonida yanada yaqqol ko'zga tashlandi. Biz yuqoridagi faslda har ikkala tilda baravar qo'llanadigan bog'lovchilar xususida so'z yuritgan bo'lsak, mazkur bobda aynan o'zbek tili uchun xos bo'lgan teng bog'lovchilarning xususiyatlarini ochib berishga harakat qilamiz.

O'zbek tilidagi teng bog'lovchilar: **va, hamda, bilan, ham, -u, -yu, -da, ammo, lekin, biroq, balki, holbuki, yoki, yo, yoxud, yoinki, goh...goh, dam...dam, bir...bir, ba'zan...ba'zan, xoh...xoh** bog'lovchilari orasidan faqat o'zbek tilida qo'llanadi deb hisoblangan bog'lovchilar quyidagilar ekanligi ma'lum bo'ldi: **va, ammo, -u, -yu, yoxud, yoyinki, holbuki, xoh...xoh**. Ulardan **va, ammo, yoxud, yoyinki, holbuki, xoh...xoh** sof bog'lovchilardir.

O'zbek tilida, odatda, so'zlashuv nutqida va bog'lovchisi kam qo'llanadi.

Har qaysi ijtimoiy davr fanining, madaniyatining rivojlanishiga ko'ra o'sha davrga xos fikrlarning ifodalanishi uchun nutqimizda yangi so'zlar – neologizm paydo bo'lganidek, arxaizm so'zlar ham aniq bo'lib qoladi. Shuningdek, ayrim mustaqil so'zlar bog'lovchi vazifasida ishlatila boshlaydi. Faqat o'zbek tilida qo'llanadigan bog'lovchilar orasida **-u, -yu** aslida yuklama bo'lib, bog'lovchi vazifasini ham bajaradi.

Teng bog'lovchilar vazifasida qo'llanuvchi **-u (yu)**, yuklamalari yordamida hosil bo'lgan bog'langan qo'shma gaplarda voqea-hodisalarning turli paytda bajarilishi, voqea-hodisalardan birining boshqasi uchun sabab bo'lishi, o'zaro zidlanishi, o'zaro qiyoslanishi va h.k. ma'nolar ifodalana oladi<sup>50</sup>.

**Ja'ne, ja'ne de, ha'm, ha'm de, tag'i, da, de, ta, te, menen, benen, penen, biraq, biraq ta, lekin, al, ba'lki, ba'lkim, sonda da, solay bolsa da, so'ytse de, bolmasa, yamasa, ya bolmasa, yaki bolmasa, a'lle, ne, degen menen, onn' menen, solay da, ya, yaki, ga', ga'hi, geyde, ga'de, bazda, birese, birde, bir, a'ri, meyli** kabi so'zlar qoraqalpoq tilida qo'llanadigan teng bog'lovchilar bo'lib, ularni quyidagicha guruhlab o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Qoraqalpoq tilidagi asl bog'lovchilar.
2. Bog'lovchi vazifasidagi yordamchi so'zlar.

Qoraqalpoq tilidagi asl bog'lovchilar: **lekin, al, sonda da, solay da, solay bolsa da, so'ytse de, ya, yaki, yag'niy bolmasa, a'ri, yamasa, ne** kabilar. Ulardan **lekin, ya, yaki** kabilar o'zbek va qoraqalpoq tillarida baravar qo'llanish xususiyatiga ega.

**Al, sonda da, solay da, solay bolsa da, so'ytse de, yag'niy bolmasa, ari, yamasa, ne** kabilar qoraqalpoq tili uchun o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Biz mavjud adabiyotlarda bog'lovchi vazifasidagi yordamchi so'zlar sifatida: **ha'm, benen, menen, penen, bir, birese, birde, biraq, ja'ne, ja'ne de, tag'i, bolmasa, geyde, ga'de, bazda, da, de, ta, te, a'sirese, ha'tte, ha'tteki, balki, ba'lkim, kerek bo'lsa, kerek desen', meyli, onn' menen, tek, tek te, qalay da, a'tten', a'lle** kabilar deb ko'rsatilganligini aniqladik.

Hozirgi qoraqalpoq tilida bog'lovchiga o'tgan so'z turkumlari haqida qoraqalpoq tilshunoslaridan Q.A.Bekbergenov, E.Da'wenovlarning tadqiqotlarida keng ma'lumot berilgan. Q.A.Bekbergenov bog'lovchilar dastlab leksik ma'noga ega bo'lgan, biroq davrlar o'tishi bilan va ma'noli so'zlar bilan ergashib qo'llanishi natijasida o'zining dastlabli ma'nolarini yo'qotib, faqat gap a'zolarini

---

<sup>50</sup> Roziqova G. O'zbek tilida sintaktik polisemiya. NDA. – Toshkent, 1999, 17-b.

va gaplarni bog'lovchi so'zga aylangan, deb hisoblaydi. Olim misol tariqasida **bolmasa** bog'lovchisining asosi bol, **degen menen** bog'lovchisining asosi de, (ayt), **biraq** bog'lovchisining asosi bir, **sebebi** bog'lovchisining asosi sebep tarzida keltiradi va bunday bog'lovchilarni tub bog'lovchilardan farqlash uchun funktsional bog'lovchilar deb nomlaydi.

Olim funktsional bog'lovchilar hozirgi qoraqalpoq tilida ot, son, olmosh, fel, ravishlardan, shuningdek yuklamalardan o'tgan, deb hisoblaydi. Bizning tadqiqot obyektimiz bo'lgan faqat qoraqalpoq tilida qo'llanadigan teng bog'lovchilar orasida son, olmosh, fe'l, ravish, ko'makchi, yuklama, modal so'z, undov so'zlardan o'tgan vazifadosh bog'lovchilar mavjud.

1. Son so'z turkumidan o'tgan bog'lovchilarga hozirgi qoraqalpoq tilida **bir**, **birese**, **birde** bog'lovchilarini kiritishimiz mumkin. Ular gap ichida bajaradigan vazifasiga ko'ra ayiruv bog'lovchilar deb ataladi. **Birese**, **birde**, **biraq** bog'lovchilarining barchasining asosi bir soni bo'lib, ular son so'z turkumidan yordamchi so'zga o'tgan: Bul xabar **birese** quwantadi, **birese** qorqitadi (T.Qayıpbergenov). **Bir**, **birese**, **birde** bog'lovchilarining ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgani bilan, gap ichida qo'llanishiga ko'ra ular o'zlarining ma'noviy, uslubiy xususiyatlariga ega. Masalan: **Bir** o'tiradi, **bir** turadi. Bu gapdagi **bir** bog'lovchisining o'rnida **birde** bog'lovchisini qo'llash mumkin emas.

Qoraqalpoq tilida "bir" soni boshqa sonlarga nisbatan o'zining ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Bir soniga aq elementining bog'lanishi bilan **biraq** (bir+aq) zidlov bog'lovchisi hosil bo'lgan. Mis: Asqar a'tirapqa qaraydi, **biraq** hesh na'rse ko'rinbeydi (O'.Xojaniyazov)

Biraq bog'lovchisi qoraqalpoq tilida eng ko'p va unumli qo'llanadigan bog'lovchilarning biri. Bu bog'lovchi **biraq ta**, **al biraq**, **biraq degen menen**, **biraq sonda da**, **biraq so'ytse de** shaklda ergashib qo'llanaveradi.

2. Olmosh so'z turkumidan **onin' menen**, **qalay da**, **a'lle** so'zlari bog'lovchilar sirasiga o'tgan.

3. Hozirgi qoraqalpoq tilida fel so'z turkumidan o'tgan bog'lovchilar mavjud. **Bolmasa** bog'lovchisi bol felining shart mayli shaklida bog'lovchi vazifasiga

o'tgan. **Bolmasa** bog'lovchisi gapdagi bajaradagan vazifasiga ko'ra teng bog'lovchilar qatoriga kiradi. Chunki u uyushiq bo'laklar va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'laydi. Mas: Mu'mkin buning da aqilli wa'zirleri bar shig'ar, **bolmasa** mina turisinda yel basqarivi qiyin g'oy.

4. Ravish so'z turkumidan o'tgan **ja'ne, tag'ı** bog'lovchilari o'zaro sinonim bo'lib, hozirgi qoraqalpoq tilida birining o'rnida ikkinchisi qo'llanaveradi. Masalan: Suwpı iyshan, axun **ja'ne** mollalar, ko'zlerime shaytan yan'lı ko'rindi (Berdaq).

Hozirgi qoraqalpoq tilida **ja'ne** bog'lovchisi qadimgi turkiy tillar yodgorliklarida **ya'ma** shaklida qo'llanilgan. Misoli: Biz **ya'ma** a'wladımız yana urishdik.

Hozirgi qoraqalpoq tilida **ja'ne, tag'ı** bog'lovchilari biriktiruvchi bog'lovchilar qatoriga kiradi. Mas: Uyalg'an bolıp ko'zin alıp qashti, **ja'ne** qaradı. Shuningdek hozirgi qoraqalpoq tilidagi **bazda, geyde** ravishlari ham ayrim gaplarda takrorlanib kelib, biriktiruvchi bog'lovchi vazifasini bajaradi. Misollar: Aydos **bazda** qatal, **bazda** jumsaq minezli (G'.Seytnazarov).

Qosiq emes, **ba'liki**, qayg'ı zar edi,

Geyde shalqıp, **geyde** buwlig'ar edi (I.Yusupov).

**Tek, tek te,**

5. Ko'makchi turkumiga mansub so'zlarning bog'lovchiga o'tishi kuzatiladi: **benen, menen, penen.**

6. Tadqiqotlarda hozirgi qoraqalpoq tilida **da, de, ta, te, a'sirese, ha'tte, ha'tteki, ba'liki, ba'lkim** kabi yuklamalarning ham bog'lovchi vazifasida qo'llanishi haqida aytiladi.

Ha'm so'zi.

**Da // de, ta // te** so'zlari bog'lovchiga o'tib, teng bog'lovchi vazifasini bajaradi va biriktiruvchi bog'lovchi bo'ladi. Mas: Men **de**, senin' g'arrın' **da** – ha'mme atlanısqa shıg'atug'ın boldıq<sup>51</sup>

---

<sup>51</sup> Bekbergenov Q.A. Ha'zirgi qaraqalpaq tilinde da'nekerge o'tken so'z shaqaplari. //Xabarshi. 2005. -№4. – B. 91-92.

7. Undov so'zlarning bog'lovchi sifatida qo'llanishi.

**A'tten'** so'zi T.Qayipbergenov asarlarida zidlovchi bog'lovchi sifatida, shuningdek, o'zbek tilidagi kabi modal so'z sifatida qo'llanganligini aniqladik.

Bog'lovchi sifatida:

–U'yimnen keter edim, **a'tten'** awilda onı bilgenler: “Sen o'z anasin quwg'an jigitsen” dep qizlarin bermewi mu'mkin, – dedi. (T.Q. 38-bet)

–Uydan bosh olib ketardim, **biroq** ovuldagi ko'rgan-bilganlar: “Sen o'z onasini uydan haydagan onabezorisan”, deb qizlarini bermay qo'yishidan qo'rqaman, –dedi. (T.Q. 44-bet)

Quyidagi misollarda asliyatdagi **a'tten'** so'zi tarjimada **afsuski** modal so'zi bilan variantdosh hisoblanadi

**A'tten'**, geypara joldaslar usı artıqmashılıg'ın aqlılıg'ım dep murnın pa'n'kiytiw menen, onın' shıg'armasın o'zinen de aqıllılar oqıytug'ının umıtadı. (T.Q. 248-bet)

**Afsuski**, ba'zi o'rtoqlar bu o'ziga xoslikni aqli rasolik deb takabburlik qiladi-yu, asarini o'zidan aqlliroqlar o'qishini unutilib qo'yadi (T.Q.285-bet).

**A'tten'**, geyparalardın' bul jaqsı da'stu'rdi o'zinshe jag'ımpazlıqqa aynaldırıp jiberetug'ın payıtları sezilip turatug'ını ishegin'e qoz saladı. (T.Q.38-bet)

**Afsuski**, ba'zilar bu yaxshi taomilni o'zlaricha talqin qilib, laganbardorlik yo tamagirlikka aylantirib yuborishlarini ham sezib qolasizki, bu achinarli holdir. (T.Q.43-bet).

Qoraqalpoq tilshunosligida eng so'nggi chop etilgan o'quv qo'llanmada **ha'tte, ha'tteki, a'sirese, ba'lkim, kerek bo'lsa, kerek desen', meyli** so'zlari ayiruv bog'lovchi vazifasidagi yordamchi so'zlar deb qaraladi. ...ko'pincha uyushiq bo'laklarning orasida takrorlanmay bir marta qo'llanadi. Bu bog'lovchi vazifasidagi yordamchi so'zlar ko'p qismli uyushiq bo'laklarning orasini bog'lab kelganda birining ma'nosini boshqalardan ajratib, kuchaytirib ko'rsatishi aytilib, quyidagi misol namuna chun keltiriladi: Sol jan'alıg'ının' biri xat jazsa da, kitap oqısa da, ha'tteki awqat jegende de, stoldan paydalanıw edi<sup>52</sup>. Bizning

<sup>52</sup> Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tili. –No'kis, Bilim, 2010. 231-b.

nazarimizda, mazkur misoldagi **ha'tte**, **ha'tteki** so'zlari bog'lovchilik vazifasida emas, balki kuchaytiruv yuklamasidir.

Shuningdek, **a'sirese** so'zining bog'lovchilik vazifasi haqidagi qarashlar ham bahstalab namuna sifatida keltirilgan: Mirzabek penen Jumagu'ldin' so'zi ha'm isi, **a'sirese** ju'regi bir-birine ug'inisqan vaqitta g'ana olardin' muxabbati turaqli muxabbat bolatug'in edi gapida **a'sirese** so'zi o'zbek tilidagi ayniqsa so'ziga mos keladi, gapda modal ma'no berish uchun qo'llangan. E.Da'wenovning tadqiqotlarida (meyli bog'lovchisini istisno qilganda) yuqorida sanalgan so'zlar bog'lovchi vazifasidagi yordamchi so'zlar qatorida ko'rsatilmagan.

**Qalay da** so'zi qoraqalpoq tilining izohli lug'atida olmosh deb izohlangan<sup>53</sup>. Mazkur so'z bog'lovchi deb qayd qilingan o'quv qo'llanmada ham bu bog'lovchining qo'llanishiga doir hech bir izoh yoki namuna sifatida misol keltirilmagan.

Yuqoridagi fasllarda teng bog'lovchilarni tahlil qilish faqat qoraqalpoq tilidagina qo'llanadigan bog'lovchilarni ajratib olishimizga imkon berdi. Bizning xulosalarimizga ko'ra **ham, benen, menen, penen, bir, birde, biraq, ja'ne, da, de, ta, te, ba'lki, ba'lkim** bog'lovchilari har ikkala tilda baravar qo'llanish xususiyatiga ega bo'lgan asl bog'lovchilardir. **Birese, ja'ne de, tag'i, bolmasa, geyde, ga'de, bazda, kerek bo'lsa, kerek desen', meyli, onin' menen, a'tten' a'lle** kabilar faqat qoraqalpoq tilida qo'llanadigan bog'lovchilar deb sanalishi maqsadga muvofiq keladi. **Biroq ha'tte, ha'tteki, a'sirese tek, tek te, qalay da** kabilar bog'lovchi vazifasini bajarmasligini yuqoridagi tahlilimizdan ravshan ko'rinib turibdi.

### **Bob bo'yicha xulosalar**

Ishimzning birinchi bobidagi kuzatishlarimiz har ikki tilda bog'lovchilarni belgilashda tilshunoslarning nuqtayi nazarlari xilma-xil ekanligini dalilladi.

O'zbek tilshunosligida teng bog'lovchilar miqdor jihatdan ko'p bo'lmasa ham, teng bog'lovchi deb qaralayotgan birliklarning ayrimlari borasida (jumladan,

---

<sup>53</sup> Qaraqalpaq tilinin' tu'sindirme so'zligi. IV tomliq. –No'kis: Qaraqalpaqstan, 1988. T.3. – 108-b.

**na...na, ham, -u, -yu, holbuki**) yakdillik mavjud emas. Bu jihatdan qoraqalpoq tilshunosligida ham mustasno emas. Bog'lovchining turi va bu turga qaysi so'z mansubligi masalasida turlicha qarashlar bo'lganligi bois bir tadqiqotda bog'lovchi deb berilgan birlik boshqasida yuklama qatoriga kiritiladi.

O'zbek va qoraqalpoq tillarida shakliy jihatdan o'xshash, mazmunan mos keladigan bog'lovchilar miqdori ancha ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga ularning grammatik tuzilishidagi o'ziga xoslik har ikki tilda fonetik o'xshash, ammo ma'no va vazifa jihatdan farqlanuvchi so'zlar mavjudligida namoyon bo'ldi. Biz buni yuqorida qoraqalpoq tilida bog'lovchi, o'zbek tilida boshqa so'z turkumlariga mansub deb hisoblanadigan bir qator so'zlar doirasida tahlil qildik.

Teng bog'lovchilarni tahlil qilish faqat o'zbek tilida yoki faqat qoraqalpoq tilidagina qo'llanadigan bog'lovchilarni ajratib olishimizga imkon berdi. Bunday bog'lovchilar o'zbek tilida miqdor jihatdan ko'p emas. Qoraqalpoq tilida bu qator anchagina so'zlarni o'z ichiga oladi. Shunisi ahamiyatliki, tahlillar jarayonida **ha'tte, ha'tteki, a'sirese tek, tek te, qalay da** kabi so'zlarning bog'lovchi emasligi, balki yuklama, undov, modal so'zlar sirasiga kiritilishi lozim degan xulosaga keldik.

Har ikkala tilda ham asl bog'lovchilar va bog'lovchi vazifasida qo'llanadigan (funktsional) bog'lovchilar mavjud. Qoraqalpoq tilida aksariyat bog'lovchilarning **da, te** kabi (ja'ne de, tag'i da, sonda da, solay da,) so'zlar bilan kelishi, shuningdek, birikmali qo'llanishi bois (**onn' menen, so'lay bolsa da, yag'niy bolmasa,**) miqdor jihatdan o'zbek tilidan farq qilishini ko'rsatdi.

## II Bob. O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA QO‘LLANADIGAN TENG BOG‘LOVCHILAR SEMANTIKASI

### 2.1. Teng bog‘lovchilarning sintaktik guruhlarni (uyushiq bo‘lak va gaplarni) bog‘lashi

Mavjud darslik va o‘quv qo‘llanmalarining aksariyatida bog‘lovchilar haqida qolipga tushib qolgan bir xil fikr va mulohazalar takrorlanadi. Vaholanki, bog‘lovchilarning semantik hamda sintaktik talqini bilan bog‘liq o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolar anchagina ko‘rinadi.

Yordamchi so‘zlarning bir turi bo‘lgan bog‘lovchilar har ikkala tilda gapdagi uyushiq bo‘laklar yoki qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘rtasidagi munosabatni ifodalash uchun qo‘llanadi. Bog‘lovchining asosiy vazifasi so‘zlar yoki gaplarni bir-biriga bog‘lash, biriktirishga yo‘naltirilganligi bois, qoraqalpoq tilida bunday so‘zlarni atash uchun **da’neker** atamasi qabul qilingan.

Bog‘lovchilar ham sintaktik aloqaning yuzaga chiqishida muhim vosita bo‘lib, mustaqil leksik ma‘noga ega bo‘lmagan, biroq gapda tenglik yoki ergashuvchilik munosabatlarini ifodalay oladigan morfologik birlikdir. Uni shaklan morfologik deyish mumkin, mazmunan esa sintaktik aloqani ifodalovchi vositalar tarkibidan muhim o‘rin olganligini rad etib bo‘lmaydi Ular vazifasiga ko‘ra teng yoki ergashtiruvchi turlardan iborat bo‘lsa-da, sintaktik aloqalar jarayonida **birgalik, zidlik yoki aniqlash, sabab, shart, chog‘ishtiruv** kabi ma‘nolarning oydinlashuviga xizmat qiladi.

O‘zbek tilida ham, qoraqalpoq tilida ham bog‘lovchilar sintaktik aloqa ifodalashda katta o‘rin tutadi. Sintaktik aloqaning analitik yo‘l bilan ifodalanishini ta‘minlovchi bu yordamchi so‘zlarning ko‘pchilik qismi hozirgi har ikki tilda ham grammatik munosabat ifodalash vositalari arsenalida qat‘iy me‘yorlashgan.

Barcha fanlar singari tilshunoslik fani taraqqiyoti, tadqiqotlar natijasida kun tartibiga yangi-yangi muammolar qo‘yilmoqda. So‘nggi yillarda chop etilgan sintaksisga doir adabiyotlarga ko‘ra quyidagi tipdagi gaplar:

Siz alochi **va** jamoatchi kishisiz – uyushiq kesimli gap.

Ukam rasm chizar **va** singlim televizor ko'rar edi – uyushgan gap.

Dushman keltirgan talafot tufayli temir yo'l izdan chiqqan edi – kengaygan hol qo'llangan sodda gap.

Ukam rasm chizar edi va singlim televizor ko'rar edi – qo'shma gap<sup>54</sup> tarzida qaralmoqda. 1-,2-,4-gaplarda teng bog'lovchilar ishtirok etmoqda. Misollardan ko'rinadiki, teng bog'lovchilarning uyushiq bo'lak va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lash vazifasi nisbatan kengaydi, ya'ni mutaxassislar uyushgan gap deb hisoblayotgan gaplarning hosil bo'lishida ham bog'lovchilar ishtirok etmoqda.

Oldingi bobda o'zbek tilidagi teng bog'lovchilar quyidagi guruhlarga bo'lib kelinganligini aytib o'tgan edik: 1) biriktiruvchi bog'lovchilar: **va, hamda** (bog'lovchi vazifasida kelgan bilan ko'makchisi, ham yuklamasi) 2) zidlovchi bog'lovchilar: **ammo, lekin, biroq, balki, holbuki** 3) ayiruv bog'lovchilar: **yo, yoki, yoxud, yoinki, dam-dam, ba'zan-ba'zan, ham-ham, bir-bir, goh-goh, xoh-xoh**<sup>55</sup>.

“Hozirgi o'zbek adabiy tili” o'quv qo'lanmasida ham teng bog'lovchilar xuddi shu tarzda guruhlangan: 1. Biriktiruvchi bog'lovchisi: **va, -u, -yu, hamda**. 2. Ayiruv bog'lovchilari: **yo, yoki, yoxud, goho, dam...dam, bir...bir, ba'zan...ba'zan**. 3. Zidlov bog'lovchisi: **ammo, lekin, biroq**<sup>56</sup>.

O'zbek Milliy entsiklopediyasida teng bog'lovchilar “**va**”, “**hamda**” – biriktiruv bog'lovchilari; “**ammo**”, “**lekin**”, “**biroq**”, “**balki**” – zidlovchi; “**yo**”, “**yoki**”, “**yoxud**”, “**goh....goh**”, “**dam....dam**” – ayiruv bog'lovchilari; – inkor **na....na** bog'lovchisi ajratiladi. “**ham**” “**-u**”, “**-yu**” yuklamalari bog'lovchi

<sup>54</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., M.Qurbonova., Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o'zbek tili. – T.: O'zMU bosmaxonasi, 2007. 366-377-b.

<sup>55</sup> O'zbek tili grammatikasi. 1-jild. Morfologiya. –Toshkent, Fan, 1975. 567 b.

<sup>56</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva P.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2009. –275 b.

vazifasida ham kelishi ko'rsatilgan<sup>57</sup>. Maktab darsliklarida ham bog'lovchining 4 turi ajratilmoqda.

**Biz balki bog'lovchisini zidlov bog'lovchilar bilan almashtirib qo'llash mumkin bo'lgan hollarning barchasida bog'lovchi sifatida, so'zlovchining anglatayotgan fikriga munosabatini ifodalagan, gapga butunicha taalluqli bo'lgan holatlarning barchasida modal so'z deb qarashni, na...na so'zlari aksariyat hollarda kesim tasdiq yoki inkor shaklda bo'lishidan qat'iy nazar gapda inkor ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilishini inobatga olib bog'lovchi sifatida emas, balki yuklamalar qatorida qarashni lozim topdik. Na unsuri fors-tojik tilidan o'zlashtirilgan bo'lib, u aksariyat adabiyotlarda o'zbek tilida mustaqil so'z sifatida emas, balki gapning uyushiq bo'laklarini, qo'shma gap tarkibiy qismlarini bog'lovchi vosita vazifasida qo'llanadi, deb hisoblanadi.**

Tilshunoslik adabiyotlarida ayrim fikrlar ham mavjudki, ularga ko'ra **na** unsuri ishtirokida shakllangan sintaktik qurilmani bog'langan qo'shma gap sirasiga kiritib bo'lmaydi. Chunki **na** unsuri bog'lovchi emas, balki inkor formadir. Shu bois **na...**, **na** inkor formasi qatnashgan sintaktik qurilmani bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar jumlasiga kiritish maqsadga muvofiqdir<sup>58</sup>.

Demak, biz o'zbek tilidagi teng bog'lovchilarni semantik guruhlashda **biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi** bog'lovchilar sifatida ajratishni maqullaymiz.

70-yillarda qoraqalpoq tilshunosligida bog'lovchilarning so'z va so'zni va gap bilan gapni bog'lashi va mazmuniga ko'ra 8 turga, yani: **1) biriktiriv; 2) qarsilas; 3) na'wbetles; 4) sebeplik; 5) waqitliq; 6) salistiriv; 7) na'tiyje; 8) sha'rt**<sup>59</sup> bog'lovchilari ajratilganligini, so'nggi tadqiqotlarda, xususan, 90-yillarga kelib ularning, avvalo, teng va ergashtiruvchi bog'lovchi sifatida farqlanganligi haqida avvalgi bobda so'z yuritilgan edi.

<sup>57</sup> O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-jild. –Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 199-200b.

<sup>58</sup>Qarang: Solixo'jaeva S. Bog'langan qo'shma gaplar // O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi.-Toshkent, 1992, 209-bet.

<sup>59</sup> Ha'zirgi qaraqalpaq tili. 1-bo'lim. Morfologiya. – No'kis. Qaraqalpaqstan, 1974. 260 b.

Aksariyat tadqiqotlarda teng bog'lovchilar – **dizbeklewshi da'nekerler 4 turga, ya'ni: 1) biriktirivshi da'nekerler; 2) qarsilas da'nekerler; 3) awispali da'nekerler; 4) gezekles da'nekerler** tarzida tasnif qilinganligi ma'lum bo'lgan edi.

O'zbek va qoraqalpoq tillarida yuklamalarning bog'lovchi vazifasida qo'llanishi tabiiy holat. Biroq yuklamalarning vazifasi ko'makchi va bog'lovchilarvazifasiga qaraganda murakkab va xilma-xildir. Birinchidan, sodda gap tarkibida gap bo'laklarining sintaktik aloqaga kirishida teng bog'lovchilar kabi xizmat qiladi. Shuning uchun ham teng bog'lovchi o'rnida yuklamani qo'llash mumkin bo'ladi. Jumladan: Bir sevgikim jon berur tanga **Ham** Zaynabu Omonlarga xos. (X.O.) **Keldi va ketdi – keldi-da, ketdi – keldi-yu ketdi.**

Faqat bog'lovchi **va** yuklama o'rtasida nozik mazmuniy farq borligi sezilib turadi.

Uyushiq fe'l kesimlar yuklamalar yordamida bog'langanda harakat tezligi semasi ham ifodalanadi.

Ayrim yuklamalar uyushiq bo'laklarning va uyushiq gaplarning sintaktik aloqaga kirishuvida ma'lum darajada xizmat qilish bilan birga, uyushayotgan bo'laklarga ta'kid ma'nosini yuklashi mumkin. Har ikki tilda ham faqat yuklama deb qaralishi joiz bo'lgan so'zlarning bog'lovchilar sirasiga kiritilayotganligi, bu qoraqalpoq tilida ayniqsa, ulkan muammoga aylanmoqda.

Qoraqalpoq tilshunosligida bog'lovchining turi va bu turga qaysi so'z mansubligi masalasida turlicha nuqtayi nazar mavjudligi, ya'ni bog'lovchilarning yuklama, undov, modal so'zlar bilan chalkashtirilayotganligi, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar qatorida sanalayotgan **ha'tte, ha'tteki** yuklamalar, **a'sirese** modal so'z sifatida tan olinishi lozim deb hisoblaymiz.

Biz o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi teng bog'lovchilarni sintaktik aloqani ifodalashiga ko'ra 2 turga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisobladik:

1. Faqat uyushiq bo'laklarni bog'lovchilar.
2. Uyushiq bo'laklarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchilar.

Har ikkala tilda ham faqat uyushiq bo'laklarni bog'lash vazifasida keladigan bog'lovchilar mavjud. O'zbek tilida **bilan** bog'lovchisi, qoraqalpoq tilida **menen, penen, benen, tag'i, tag'i da** bog'lovchilari faqat uyushiq bo'laklarni bog'lash vazifasida qo'llanadi.

Shuni inobatga olgan holda teng bog'lovchilarning ma'no turlari doirasida uyushiq bo'laklarni yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashdagi vazifalarin xususida to'xtalamiz.

O'zbek tilida bunday bog'lovchilarning eng ko'p qo'llanadigani **va** bog'lovchisidir. Bu bog'lovchi ayrim gaplarni va gapdagi uyushiq bo'laklarni bog'laganda, ular orasidagi teng munosabatni ifodalaydi.

Bir gapdagi bir necha uyushgan bo'laklarning oxirgisidan oldin kelganda va bog'lovchisi uyushgan bo'laklar orasidagi teng munosabatlarni ko'rsatish bilan birga oxirgi uyushgan bo'lakni alohida ajratib, ta'kidlab ko'rsatish uchun ham ishlatiladi.

Va bog'lovchisi qo'shma gap tarkibidagi ayrim sodda gaplarni bir-biriga bog'laganda o'zi bog'lagan sodda gaplarda ifoda qilingan ish-harakat, voqea va hodisalarning bir vaqtda bo'lganini yoki ish-harakatning ketma-ket bo'lganini ko'rsatadi.

Mutaxassislar **va** bog'lovchisi eski yozuvda hozirgi vergul vazifasini ham o'tganini ko'rsatadilar. **Va** bog'lovchisi eski manbalarimizda boshqa bog'lovchilar bilan birga ishlatilgan o'rinlar ham ko'p; **va ham, va yoki, va goh, va yana, va na, va lekin, (valek, vale shakllari ham bor)** kabi.

Ba'zan **va** bog'lovchisi o'rnida **-u, (yu)** yuklamasi ham uyushgan bo'laklar, qo'shma gap tarkibidagi ayrim gaplar orasida kelib, biriktiruvchi bog'lovchi vazifasida ham ishlatilmog'i mumkin. Bunday choqda bog'lanuvchi bo'laklar

orasidagi bog'lanish juda mustahkam bo'ladi. Ketma-ket bo'lgan ish-harakatni bir-biriga bog'lovchi va o'rnida **-da** yuklamasi ham qo'llanadi. Bunday vazifada ishlatilgan **-da** oldingi gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilishidagi shu yuklama ifodalaydigan tezlikni ham ko'rsatib turadi. Bu bog'lovchi vazifachida qo'llanadigan yuklama tezlikni ifodalash uchun qo'llangani sababli har doim bo'lishli fe'llar orasida keladi (Oldi-**da**, ketdi kabi)

**Hamda** bog'lovchisi gap bo'laklari va qo'shma gap tarkibidagi ayrim gaplarni bog'laydi. Bu bog'lovchi qator uyushgan bo'laklarning oxirgisidan oldin kelganda uyushgan bo'laklar orasidagi tenglik munosabatini ko'rsatadi. Bu bog'lovchi ham ish-harakatning bir vaqtda (gapirdi ham kuldi kabi) yoki ketma-ket bo'lganini ko'rsatadi (keldi ham ketdi)

**Ham** uyushgan bo'laklar oldida yoki oxirida takrorlanib kelmog'i mumkin. Bunday chog'da u uyushgan bo'laklarni oldida kelgandagina bog'lovchi sanaladi. Ham uyushiq bo'laklar ketida takrorlanib kelganda uyushiq bo'laklarni ajratib ko'rsatish uchun qo'llanadi. Bu bog'lovchi takrorlanib kelganda ham fonetik o'zgarishga uchrab yumshoq h tovushi y ga o'tishi yoki tushib qolgan holda ishlatilishi mumkin. Bunday chog'da u o'zidan oldingi so'zga qo'shib talaffuz etiladi va yoziladi.

O'zbek tilida **bilan** o'zining asosiy ko'makchilik vazifasidan tashqari biirktiruvchi bog'lovchi vazifasida ham qo'llanishi mumkin. Bu ko'makchi bog'lovchi vazifasida kelganda boshqa biirktiruvchi bog'lovchilar singari gapning uyushgan bo'laklarini bog'laydi. Shu bilan birga u uyushgan bo'laklarning zich munosabatini va ayni paytda birgalik munosabatini ham ifodalaydi.

Qoraqalpoq tilida biirktiruvchi da'nekerler (biirktiruvchi bog'lovchilar) **da-de, ha'm, ha'm de, ja'ne, ja'ne de, tag'ı, tag'ı da, menen, benen, penen, al** kabilardir. Mazkur bog'lovchilar uyushiq bo'laklarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng bog'laydi. Biirktiruvchi bog'lovchilarning uyushiq bo'lak va sodda gaplarni bog'lash funksiyaci bir xil emas. Yuqorida sanalgan bog'lovchilardan **al** bog'lovchisidan boshqasi uyushiq bo'laklarni bog'lashda keng qo'llanadi.

**Da-de, ta-te** bog'lovchilari. Qoraqalpoq tilida mazkur bog'lovchilar gapda vazifasiga ko'ra haqiqiy da'nekerler (sof bog'lovchilar) va janapayliq da'nekerler (bog'lovchi-yuklamalar) tarzida ikkiga ajratiladi.

**Da-de** bog'lovchilari haqiqiy da'neker (sof bog'lovchi) vazifasida kelganda so'z va so'zni, uyushiq a'zolari yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'laydi. Ular quyidagi hollarda haqiqiy da'neker (sof bog'lovchi) vazifasini bajaradi:

1) uyushiq bo'lmagan ikki so'zni bog'laydi: ol izalanip ton'qildadi **da** ju'rdi (A'.T.). Jolbaris toran'g'ildin' tu'binde birazg'a shekem arman-berman keselep ju'rdi de qoydi (O'.A.);

2) uyushgan bo'laklar orasida biriktiruvchi bog'lovchi bo'lib keladi: A'llen waqitta Alaqus Gu'ljannin' qasina jetip keldi **de**, quyrig'in bilg'an'latti(S.A.). Ol kemesinin' basin qir jag'ag'a tiredi **de**, awzi arqag'a qarag'an baraqtin' qasina kelip toqtadi (O'.A.);

3) qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni: Qapi qatti ashildi da, awızdan u'lken deneli adam ko'rindi (K.S.). Qizlar barliq zatların avtobusqa saldı **da**, o'zleri onı ku'tpey-aq institutqa qaray jol aldı (T.N). Bizler ha'zir shay iship bolamız **da**, ha'mmemiz bag'qa mina na'lshelerdi tigemiz (M.Karim).

**Da-de** bog'lovchilari quyidagi hollarda janapayliq-da'neker (bog'lovchi-yuklama) vazifasida qo'llanadi:

1) o'zi bog'langan so'zga kuchaytiruv ma'nosini berish orqali keyingi so'z bilan bog'lab keladi: Batıstan ko'teretin qara bultlar Shag'ırlıq tawlarınin' aspanın **da** qaplap alg'an edi (J.S.). Abat asıqpay otırıp, qozılardıń ekewin **de** paltosına oradı (T.Q.);

2) uyushiq bo'laklarning har biri bilan takrorlanib kelib bog'lovchi-yuklama vazifasini bajaradi: suwg'a salıng'an na'rete de, ko'rgen aw **da**, tartqan jilim **da** sıg'asib balıqqa tolg'an. Arbanın' astınan ko'terilgen shan' **da**, do'ngelekte

atlardıń doynaq taslawları **da**, do'gerek dashtag'ı sho'pler **de**, salmalar menen bulaqlar **da**, tuslarinan o'tip atirg'an basqa atlilar menen arbalar da, jol bo'yındag'ı qarlıg'ashlar **da**, qullası bulardıń ba'ri **de** baxıt parwazında pa'lpa'llengen go'zzalıqtın ko'rinisi edi. (Sh.A)

### **Ha'm, ha'm de,**

Adamlardıń joldan **ha'm** o'mirden adaspawı ushın juldızlardıń eki tu'ri bar, biri qaran'g'ı tu'nde aspanda shag'ıraysqan ta'biyyi juldızlar, ekinshisi ko'pti ko'rgen, ko'p jasag'an g'arrılar, deytug'in edi menin' apam.(17-bet)

Jasımda atamnan, anamnan, a'kemnen, ko'p jasap, ko'pti ko'rgen qaqtıqulaq qariyalardan, ko'she biyelerinen, a'debiyat mug'alliminen esitken esapsız ko'p a'n'gime **menen** a'psanalardı, danalıqlar, ken'eslerdi, birinshi vojatıymnıń u'yretiwı boyınsha ju'rgizgen ku'ndeligimdi usı kitapqa kirgizerde, men endi salıwım tiyis jan'a imarattın' **ha'm** tırnag'ı, **ha'm** gerbishleri sıpatında paydalandım, men endi shertiwım tiyis duwtardıń tarları **ha'm** sesli perdeleri qılıwg'a tırıstım, basqalardıńda jiyirkenbey su'n'gip ju'ziwi ushın endi qazıwım tiyis jan'a hawızdıń **ha'm** taza suwı **ha'm** kemesi qılıp ag'ızdım. (9-10 bet)

### **Ja'ne, ja'ne de,**

Xan onıń juwabın moyınlaw ornına, ata saqaqlın tislep ship-ship terge tu'sip **ja'ne:**

– Sen qaysınday adamlardı o'zin'e dushpan dep esplaysan'? – dep soraptı.  
(35-bet)

Tag'ı, tag'ı da,

### **Menen, benen, penen, al**

Oturıspanın' barısı qızlar **menen** jigitler arasındag'ı ha'r qıylı danalıqlar, astarlı a'n'gimeler aytısıw menen barlıq jag'dayda da a'dep-ikramlılıq, sıpayılıq qa'deleri hesh buzılmastan dawam etedi. (70-bet)

At **penen** eshekti qatar baylasan', attan go're eshektin' atqa ta'siyri ko'birek o'tedi.

Deni saw bende turmıstın' qısqısına miyneti menen em tabadı, **al** jıllar qısqısının' emi joq. (105-bet)

O'zbek tilidagi zidlovchi bog'lovchilar qoraqalpoq tilidagi **qarsilas** bog'lovchilariga mos keladi. Bunday bog'lovchilar sodda gaplar va bog'langan qo'shma gaplarda qo'llanib, hodisa, ish-harakat yoki biror predmetni boshqasiga zid qo'yib ularning orasidagi qarama-qarshi munosabatni bildiradi. O'zbek tilida zidlovchi bog'lovchilardan **lekin, ammo, biroq, holbuki** keng qo'llanadi. **Zidlovchi bog'lovchilar o'zbek tilida gapning uyushgan bo'laklarini bog'lash vazifasida juda kam qo'llanadi.**

**Lekin** bog'lovchisi biror predmet, hodisa yoki ish-harakatning boshqasiga zid, qarama-qarshi qo'yilganligini ifodalaydi. Bu bog'lovchi gapda fikrning almashinishini ifodalash uchun ham qo'llanmog'i mumkin. Bunday chog'da zidlash, qarama-qarshi qo'yish ma'nosi kuchsizlanadi. **Lekin** bog'lovchisi bajargan vazifalarni uning sinonimlari **ammo, biroq, holbuki** bog'lovchilari ham bajarishi mumkin. Bu bog'lovchilar ham so'zlar va ayrim gaplarni biri-biriga bog'lab, ish-harakat, holat, sifat va shu kabilardan qarama-qarshilik, zidlik bor ekanini ifodalaydi. Bu bog'lovchilar (ayniqsa ammo bog'lovchisi) ish-harakat, holat va hodisalarning o'xshash emasligi, farqi jihatidan qiyoslab birini ikkinchisiga zid qo'yadi. Zidlovchi bog'lovchilar ayrim gaplarning boshida ham kelib o'zidan oldin kelgan gapni mazmunan keyingi gapga zid, qarama-qarshi ekanligini ko'rsatadi. Zidlovchi bog'lovchilardan **ammo, lekin** bog'lovchilari qavat kelib **ammo lekin** tarzida qo'llanishini ham ko'ramiz. Bunday qavat bog'lovchi so'zlashuv tilida ko'p uchrasa-da, u hozirgi kundm badiiy adabiyotda (personaj nutqida) ham uchramoqda.

**Balki** bog'lovchisi predmet, shaxs yoki ish-harakat orasidagi zid munosabatni bildiradi. **Balki** gaplarni bog'laganda, birinchi (oldingi) gapda ifodalangan fikrni tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. **Balki** ba'zan ehtimollik, gumon, ishonchsizlik

ma'nolarini anglatadi. **Balki** bog'lovchisi gapda mazmunan zid bo'laklarni bog'lash uchun ham ishlatiladi.

**Balki** bog'lovchisi yuqoridagidek qarama-qarshi ma'noli gap bo'laklari orasida kelganda, tushirilib qoldirilishi, qo'llanmasligi ham mumkin. Lekin bunday choqda gapning umumiy mazmuniga xalal etmasa ham, ta'kid, ajratib ko'rsatish ma'nosi yuqoladi.

Qoraqalpoq tilida **awispali da'nekerler, gezekles da'nekerler** tarzida guruhlangan bog'lovchilar o'zbek tilida ayiruv bog'lovchilariga muvofiq keladi. Bu bog'lovchilar sodda gaplar yoki bog'langan qo'shma gaplarda uyushgan bo'laklarni yoki qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun ishlatiladi. Ular gap bo'laklari, qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga voqea, hodisa va ish-harakat yoki holatning almashinib turishi yoki biri-birini taqozo qilishini ham ifodalaydilar.

Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ko'p qo'llanadigan ayiruv bog'lovchilar **yo, yoki, yohud, yoinki, yo-yo, goh-goh, dam-dam, bir-bir, ba'zan-ba'zan, xoh-xoh** bog'lovchilaridir.

Bulardan **yo, yoki, yoxud, yoinki** bog'lovchilari uyushgan bo'laklarning birini ikkinchisidan, birir voqea, hodisa yoki ish-harakatni boshqasidan ko'rsatish uchun ishlatiladilar.

**Goh-goh, dam-dam, bir-bir, ba'zan-ba'zan** bog'lovchilari esa uyushgan bo'laklarning yoki ayrim sodda gaplarning oldida takrorlanib kelib, uyushiq bo'laklar yoki ayrim gaplarni ayiruv yo'li bilan bog'lab, galma-gallik, almashinib turish ma'nolarini anglatadilar.

Ayiruv bog'lovchilari yakka holda ham, takroriy holda ham qo'llana oladi. Takroriy bog'lovchilar takrorlangan gap bo'lagi yoki ayrim gaplarning oldida qo'llanadi. Lekin **ham** takrorlangan bo'laklar yoki gaplar ketida takrorlanib kelishi mumkin. Bunday chog'da u yuklama sanaladi. ...Noilojlikda o'zicha buni oqlash uchun qandaydir sabab, o'ziga **ham**, menga **ham** tasalli qidirar edi ( A.Muxtor). O'rtanchasi bo'lsa yig'lamaydi **ham**, kulmaydi **ham** ( A.Muxtor). Karomat opam

go‘zallikda **ham**, sho‘xlikda **xam**, o‘yinga ustalikda **ham** o‘rtoqlaridan qolishmaydi (Oybek).

O‘zbek tilida takroriy bog‘lovchilardan ayrimlari yakka holda ham qo‘llanadi, ammo bunda ularning hammasi ham bog‘lovchi bo‘lavermaydi. Jumladan, ham yolg‘iz qo‘llanganda yuklama, dam ot, ba‘zan ravish, bir son bo‘ladi. Faqat **yo**, **yoki**, **yoxud** so‘zlari yakka holda ham bog‘lovchi hisoblanadi.

O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi bog‘lovchilarni qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bog‘lovchilar ham semantik jihatdan arxaiklashadi. Masalan, hozirgi qoraqalpoq tilida faol qo‘llanayotgan **tag‘i**, **tag‘i da** bog‘lovchilariga muqobil bo‘lgan **yana va taqi//dag‘i** so‘zlari hozirgi o‘zbek tilida bog‘lovchi vazifasida kelmaydi va binobarin ular yordamida tashkil topgan bog‘langan qo‘shma gaplar ham uchramaydi.

Bog‘lovchilarning qo‘shma gap qismlarini bog‘lashi masalasi ham alohida e‘tiborni talab qiladi.

S.Ravshanovanning tadqiqotlarida bog‘langan qo‘shma gap komponentlarini bog‘lab keladigan bog‘lovchilar (biriktiruv, zidlov, ayiruv) haqida ancha batafsil ma‘lumotlar keltiriladi<sup>60</sup>.

G‘.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdievlarning «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» qo‘llanmasida bog‘langan qo‘shma gapning asosiy grammatik belgisi teng bog‘lovchilar ekanligiga alohida urg‘u beriladi va qo‘shma gapdan farqli ravishda, ayirish mazmuniy munosabatining keng qo‘llanishi, sabab va natija mazmuni munosabatini ifodalovchi qurilmalarning mustaqilligi va har bir semantik munosabat ichida o‘ziga xos mazmun ifodalarining mavjud bo‘lishi qayd etiladi<sup>61</sup>.

Mazkur ishda mualliflar bog‘langan qo‘shma gapni shakllantiruvchi asosiy vosita teng bog‘lovchilar ekanligini to‘g‘ri ta‘kidlaydilar<sup>62</sup>. An‘anaviy

<sup>60</sup> Ravshanova S. Bog‘langan qo‘shma gaplarda zidlov bog‘lovchilari bilan birikkan sodda gaplarning fikriy munosabatlari haqida // Dokl.nauchno-teor.konf.-Buxara,1957; Darak va swroq gapdan tashkil topgan bog‘langan qo‘shma gaplar // Toshkent ped-intining ilmiy asarlari, 98-tom, 1972; Struktura slojnosochinyonnix predlojeniy v sovremennom uzbekskom literaturnom yazıke // Avtoref.kand.dis.-Tashkent, 1969.

<sup>61</sup>. Qarang: Abdurahmonov G‘., Sulaymonov A., Xoliyorov X., Omonturdiyev J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. –Toshkent, 1979, 123-b.

<sup>62</sup>. Qarang: O‘sha asar, o‘sha bet.

tilshunoslikda bog'langan qo'shma gapning biriktiruv bog'lovchili turi **va, ham, hamda** singari bog'lovchi vositalar, shuningdek, **-da, -yu** yuklamalari ishtirokida shakllanishi ko'rsatiladi. Biroq faktik til materiallarining tahlili hozirgi o'zbek tilida teng komponentli qo'shma gaplarning biriktiruv bog'lovchili turida va bog'lovchisining hamda **-da, -yu** yuklamalarining faol qo'llanilishini dalillamoqda. Shuni ham aytish lozimki, mazkur vositalardan va bog'lovchisi bog'langan qo'shma gapni tashkil etuvchi omil sifatida ko'proq yozma nutqda qo'llaniladi. Hozirgi o'zbek tili og'zaki nutqida esa uning o'rnida, asosan, **-da, -yu** yuklamalari faol ishlatilmoqda.

Shunisi muhimki, hamda, ham so'zlari an'anaviy tilshunoslikda biriktiruv bog'lovchilari tarzida talqin etilsa-da, ular **va, -da, -yu** kabi morfologik vositalardan birmuncha farq qiladi. Bu farqni, asosan, ularning bog'langan qo'shma gapning ikkinchi qismini birinchisining ilovasi tarzida faollashtiruvda ko'ramiz. Aynan ana shu bois quyidagi misolda hamda bog'lovchisini va bilan yoki yuklamalar bilan almashtirib qo'llab bo'lmaydi: Tog'da tajriba o'tkazildi hamda dam oldik.

Aytish lozimki, bu haqda G'.A.Abdurahmonov tomonidan bildirilgan fikr diqqatga sazovordir. Unga ko'ra, hamda bog'lovchisi qo'shimcha ma'lumot beruvchi gapni voqelantirishi aytiladi: «Bog'langan qo'shma gapning ikkinchi qismi qo'shimcha ma'lumot ifodalashi mumkin. Qo'shimcha ma'lumot qo'shma gapning birinchi qismi bilan bevosita bog'lanishi, undan kelib chiqishi yoki birinchi qismning mazmuni bilan bevosita bog'lanmasligi ham mumkin. Bu xil bog'langan qo'shma gap qismlarini biriktirish uchun asosan ham, hamda bog'lovchilari ishlatiladi»<sup>63</sup>.

O'zbek tilida bog'langan qo'shma gaplar hosil qilishda ammo, lekin, biroq va balki bog'lovchilari ham faol qo'llanadi. Bu bog'lovchilari yordamida mazmunan bir-biriga zid, qarama-qarshi bo'lgan voqea-hodisalarni ifoda etuvchi gaplar birikadi. Ammo bog'lovchisining qo'llanishida qoraqalpoq va o'zbek tili grammatikasida ayrim farqlar bor.

---

<sup>63</sup>. Qarang: Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi.- Toshkent, 1996. 134-b.

Hozirgi o'zbek tilida **ammo** bog'lovchisi **lekin** bog'lovchisi birgalikda ham ishlatilishi mumkin: Paxtamizning hozirgi holati kuzda yaxshi hosil olishga ishontirib turibdi, **ammo lekin** shu vaqtgacha majlis uchun bironta klubimiz yo'q (U.). Bir oy Salomat opa, bir oy Karomat muharrir bo'ladi. Ammo lekin Salomat opaning gazetasi har safar tanqidga uchraydi (O. s.).

Bu xususiyat qoraqalpoq tilidagi yozma manbalarda yo'q. **Ammo** bog'lovchisining lekin bog'lovchisi bilan birgalikda qo'llanishi odatda so'zlashuv nutqi uchun xos bo'lib, bunda zidlik ma'nosi kuchli tarzda, ta'kid bilan, aniq ifodalanadi.

Ayiruv munosabatli qo'shma gaplar borasida tilshunos olimlarning fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir.

Bunday mazmuniy munosabatlarni G'.Abdurahmonov quyidagicha izohlaydi:

1. Qo'shma gap qismlaridan anglashilgan harakat-holatning biri ro'y beradi yoki ro'y bermaydi.

2. Qo'shma gap qismlaridan anglashilgan harakat-holatlar galma-gal sodir bo'ladi.

3. Qo'shma gap qismlaridan anglashilgan harakat-holatning har ikkisi ro'y beradi yoki ro'y bermaydi.

4. Qo'shma gap qismlaridan anglashilgan harakat-holatning biri ikkinchisini inkor etadi<sup>64</sup>.

1. Yigit esa dom-daraksiz. **Na** qo'shig'i eshitiladi, **na** izi topila qoladi

2. **Na** biror uyning mo'risidan tutun chiqadi, **na** biror daraxt ko'rinadi

Eski o'zbek tili bilan shug'ullangan olimlar **bo'lsa, esa** bog'lovchilari haqida hech qanday fikr bildirmaganlar. Bu bog'lovchilar va ular orqali hosil qilingan bog'langan qo'shma gaplar eski o'zbek tiliga oid yozma manbalarda qo'llanmagan. Bu bog'lovchilar yordamida tuzilgan qo'shma gaplar XX asrda kelib chiqqan.

---

<sup>64</sup> Qarang: Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi.-Toshkent, 1996, 134-b.

Bo'lsa, esa so'zlari ishtirokida shakllangan qo'shma gaplarda, oldingilaridan farqli ravishda, ikki gapda ifodalanayotgan voqea-hodisalar mazmunan qiyoslanadi va qiyoslanayotgan bo'laklarga mantiqiy urg'u tushadi<sup>65</sup>.

## **2.2. Qoraqalpoq tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlarda teng bog'lovchilardan foydalanish imkoniyatlari**

Biz O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi, O'zbekiston qahramoni T.Qayipbergenovning «Qoraqalpoqnoma» (1995, 1-nashri), roman-essesi va shu asarning o'zbek tiliga R.Otaev tomonidan qilingan tarjimalari (1997)da bog'lovchilarning qo'llanilishini tahlil qildik.

Kuzatishlarmiz bog'lovchilarning asliyat va tarjimada qo'llanishi bo'yicha quyidagi guruhlarga ajratish zarurligini ko'rsatdi:

**1. Qoraqalpoq va o'zbek tilida baravar qo'llanadigan yoki o'xshash ekvivalenti bo'lmasa-da, ular o'rnini to'la bosadigan, mazmunan muvofiq keladigan muqobil variantlari bilan berilishi**

**2. Qoraqalpoq tilida bog'lovchisiz, o'zbek tilida bog'lovchi bilan qo'llanishi**

**3. Qoraqalpoq tilida bog'lovchili, o'zbek tilida bog'lovchisiz qo'llanishi**

**4. Noto'g'ri tarjima qilingan bog'lovchilar.**

“Qoraqalpoqnoma” tarjimasida qoraqalpoq va o'zbek tilida baravar qo'llanadigan yoki o'xshash ekvivalenti bo'lmasa-da, ular o'rnini to'la bosadigan, mazmunan muvofiq keladigan muqobil variantlari bilan berilishi asliyatdagi g'oyaning ochilishiga yordam bergan.

Tarjimon bog'lovchilarni tarjima qilar ekan, iloji boricha ularning muqobili yoki sinonimini topishga harakat qilgan. Qoraqalpoq tiliga xos bog'lovchilarning o'zbek tiliga xos bog'lovchilar bilan berilishiga quyidagilarni misol qilish mumkin: **dam...dam (o'zb) – birese... birese, (qq), xoh...xoh (o'zb) –**

---

<sup>65</sup> Qarang: O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili (O'quv qo'llanma). - Samarqand: SamDU nashri, 2001, 112-bet.

**meyli...meyli (qq), goho...goho (o'zb) – geyde...geyde (qq), yoxud (o'zb) – yamasa (qq)** kabilar

Vazifa jihatdan mos bog'lovchini ekvivalent sifatida qo'llash: **ga...ga va bir...bir, biraq va biroq** bog'lovchilari o'zaro muqobil bo'la oladi.

Qiyalimda: g'arrilar pa'tiyasi menen mag'an shayirliq bergen, **al** men awzi ashliq etip onı jog'altqanman» (T.Q. 137-bet).

Mazkur gapda **al** bog'lovchisi qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplardagi mazmunini qiyoslashga yordam beradi. Tarjimada qiyoslash mazmunini anglatish uchun xizmat qiladigan esa bog'lovchisini keltirish bilan tarjimon asliyatdagi mazmunni berishga erishgan.

Nazarimda, qariyalar o'z fotihalari bilan menga shoirlikni qo'shqo'llab tutqazishgan, men **esam**, landovurlik qilib, qo'limda turgan narsani yo'qotib qo'ygandek edim. (T.Q. 154-bet).

Bazı adamlardın' ne na'rsesi ko'p bolsa, ol sonın' qa'dirin jog'altadı, **al** kitap bul du'nyada senin' neni hurmetlewin', neni jog'altıwın' kerekligin tu'sindiredi (T.Q. 150-bet).

Ba'zilar uchun oldida oqqan suvning qadri yo'q. Kitob **esa** shunday bebaho ummonki, u faqat o'zini emas, yana nimani qadrlash, nimani ardoqlab-ezozlash kerakligini ham o'rgatadi. (T.Q. 170-bet).

**Menen** bog'lovchisi **bilan** bog'lovchisiga bilan muqobil bo'la oladi:

Buyriqtın' aldın alıp u'lgere almay qalg'an bas wa'zir **menen** axun tek erinlerin tisedi, ba'ri bir axun parasat tutalmadı. (T.Q. 102-bet).

Buyruqning oldini olib ulgurolmay qolgan vazir **bilan** oxun lablarini tishlashdi, lekin oxun baribir chidab turolmadi. (T.Q. 90-bet).

**Birese...birese, meyli...meyli, geyde...geyde** kabi takrorlanib qo'llanuvchi bog'lovchilar o'zbek tilidagi takrorlanib qo'llanuvchi ayiruvchi bog'lovchilar bilan berilgan:

A'ne sonda jıldın' ma'wsimi o'zgerip **birese** jaz, **birese** gu'z, **birese** qıs, **birese** ba'ha'r boladımış. (T.Q. 5-bet).

Ana shundan yil fasllari o‘zgarib **dam** yoz, **dam** kuz, **dam** qish, **dam** ko‘klam bo‘larmish... (T.Q. 7-bet)

Adamdi, **meyli** ata-anasi ya tuwısqanlari, **meyli** doslari, **meyli** o‘z balalari ya aqlıqlari ortag‘a alıp jasaybersin ba‘ribir, ha‘r adam jekkeliginde qaladı.(T.Q. 64-65-bet).

U **xoh** ota-onasi yoki qarindosh urug‘lari, **xoh** do‘st-birodarlari, **xoh** o‘z farzandlari davrasida bo‘lsin baribir yolg‘izlikka mahkum bo‘lib qolaveradi. (T.Q. 73-bet)

Jekkelikte ba‘sin‘a kelgen oylar **geyde** jaylım suo‘dın‘ juzine bir sekirip qayta su‘n‘gip ketken oyın balıg‘i, **geyde** bult astunan bir jilt yetip qayta jog‘alg‘an juldız. (T.Q. 19-bet)

Yolg‘izlikda miyanga kelgan fikrlar **goho** ko‘lmak suv yuzasida bir ko‘rinish berib qayta sho‘ng‘igan aldanchi baliq, **goho** bulut ostidan bir miltirab ko‘zdan yo‘qolgan yulduz. (T.Q. 23-bet).

**Birese** kishi ju‘z quwdı, **birese** Orta ju‘z quwdı. (T.Q. 318-bet).

**Dam** kichik yuzning, **dam** O‘rta yuzning qo‘li baland keladi. (T.Q. 360-bet).

Qoraqalpoq tilida **ha‘m** biriktiruv bog‘lovchisi faol qo‘llanadi. Tarjimon asliyatda o‘zbek tilida **va** bog‘lovchisining faol qo‘llanishini inobatga olib aynan shu bog‘lovchini keltiradi:

Adam o‘mirinin‘ man‘ızı – o‘zine o‘zi ma‘n‘gi intervyu beriwden **ha‘m** o‘zinen o‘zi intervyu alıwdan ibarat. (T.Q. 3-bet)

Inson umrining ma‘nosi – mudom o‘z-o‘ziga hisob berish **va** o‘z-o‘zini tergab yurishdan iborat. (T.Q. 5-bet)

Berdaq shayırdın‘ qosıqlarınan narazı xan bir ku‘ni onı aldına shaqırıp: “Seni ko‘zi ashıq desedi, olay bolsa ayt, du‘nyada qansha adam jasaydı?” – depti **ha‘m** o‘zinde naq esap barlıg‘ın eskertip “Eger, qa‘telessen’, gelle qılamam”,– depti (T.Q. 4-bet)

Berdaq shoirning she‘rlaridan norozi bo‘lib yurgan xon bir kuni uni huzuriga chaqirtirib: “Seni dono deyishadi, shu gap rost bo‘lsa, ayt-chi, dunyoda qancha

odam yashaydi?” deb so‘rabdi **va** o‘zida aniq ma’lumotlar borligini ham eslatib: “Agar xato qilsang, kallang ketadi”, debdi. (T.Q. 6-bet)

Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, qoraqalpoqcha bog‘lovchilarning ba’zilarining aynan o‘xshash ekvivalenti bo‘lmasa-da, ular o‘rnini to‘la bosadigan, mazmunan muvofiq keladigan muqobil variantlari tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlagan.

### **O‘zbek tilida bog‘lovchi bilan, qoraqalpoq tilida bog‘lovchisiz**

Tarjimon ba’zi o‘rinlarda aslyatda bog‘lovchi qo‘llanmagan bo‘lsa ham gapning mazmuniga muvofiq keladigan teng bog‘lovchilarni keltiradi. Bu shu bilan izohlanadiki, yozuvchi g‘oyasini bo‘rttiribroq berish uchun tarjimon bog‘lovchini qo‘llashga ehtiyoj sezadi.

Qiyinlig‘i kisi o‘zi haqqida hesh qashan shinliqti toliq ayta almaydi: bazi jag‘dayda bul naqolay tuyiladi, ja’ne bir jag‘dayda shin sirlarin o‘zgelerge jayıwdan qorqadi, o‘zinin’ bahasin o‘zine mina’sip ko‘rmeydi. Qullasi qiyin. (T.Q. 27-bet)

Qiyinligi – odam o‘zi haqidagi rost gapni hech qachon to‘la-to‘kis aytolmaydi: ba’zi hollarda bu andak noqulay tuyuladi, boshqa vaziyatda sir-asrorini o‘zgalarga oshkor etishdan qo‘rqadi, o‘ziga oshiribroq baho beradi, **yojud** ko‘nglidagi to‘g‘ri bahoni o‘ziga munosib ko‘ravermaydi, xullas – qiyin! (T.Q. 31-32-betlar).

O‘z ta’g‘dirin’e teren’irek u’n’iliw – xalqının’ ta’g‘dirine teren’irek u’n’iliw. (T.Q. 4-bet)

O‘z taqdiriga teranroq nazar tashlash **esa**, xalq taqdirini teranroq anglash demakdir. (T.Q. 5-bet)

Bunday soqirlıq penen xalqın’dı tanıwın’ tu’we, o‘zin’di o‘zin’ taniwın’ awır, mu’shkil. (T.Q. 27-bet).

**Holbuki**, ko‘r-ko‘rona xatti-harakatlar bilan xalqingizni tanimoq tugul o‘zingizni o‘zingiz tanishingiz ham mushkul. (T.Q. 31-bet)yu

Kim totıqus bolg’ısı keledi? (T.Q. 27-bet).

**Holbuki**, kim to’tiqush bo‘lgisi keladi. (T.Q. 37-bet).

– Turarliq, – deпти Berdaq ku’lirmsirep. Xan sasrayi birewlerdin’ pa’rin julip, ekinshilerge qanat qılıp baylaytu’g’nın burınnan bilemiz. (T.Q. 35-bet).

Arziydi, – debdi Berdaq kulimsirab, – **biroq** xon saroyi birovlarning patini yulib, boshqalarga qanot qilib yopishtiriladigan joyligi avvaldan ma’lum.

### **O‘zbek tilida bog’lovchisiz, qoraqalpoq tilida bog’lovchili**

Tarjima jarayonida shunday holatlar ham bo‘ladiki, bog’lovchilar lug‘aviy ma’noli mustaqil so‘z orqali ifodalanadi. T.Qayipbergenov asarlarining o‘zbek tiliga qilingan tarjimalarida iboralar ekvivalent yoki variantlari bilan emas, mustaqil so‘z bilan berilgan hollari ham kuzatiladi.

Anam **bazda** irkilip, man’layimnin’ terin sıpradı, **bazda** samardi to’besine ton’kerip meni arqalaydi... (T.Q.5-bet).

Onam **dam-badam** to’xtab peshonamdagi terlarimni artadi. **Goho** tog’orani boshiga qo’yib meni ko’taradi. (T.Q.7-bet).

Bu o’rinda asliyatda **bazda** bog’lovchisi takror qo’llangan. Tarjimada asliyatdagi gap sodda gaplarga ajratilib, **dam-badam**, **goho** ravishlaridan foydalanilgan.

“**Degen menen** jaslardı sinaw ma’jlisine shekem awızı bir sıyaqlı bolıp ju’rgen biyelerdin’ Maman saylang’annan keyin toyg’a qaramay ketgenine hayran” (T.Q. 43-bet).

“**Unday desa**, yoshlar yig’inigacha bir yoqadan bosh chiqarib turgan biylar Maman saylanganidan nega to’yga qolmay ketib qolishdiykin?” (T.Q. 50-bet).

### **Bog’lovchi o‘rnida yuklamani qo‘llash holatlari mavjud:**

Olar jolig’ıssa, bir-birine u’rpeyisip **ha’m** o’zlerin, **ha’m** aynalasındag’ılardı qorqıtadı. (T.Q. 13-bet).

Ular uchrashganida bir-biriga hurpayishib, o’zlariga **ham**, tevarakdagilarga **ham** kulfat orttiradi. (T.Q. 16-bet).

Asliyatda **ha'm** so'zi uyushiq bo'laklardan oldin joylashgan, demak, bog'lovchi sanaladi. O'zbek tilida **ham** so'zi uyushiq bo'laklardan keyin kelganda yuklama hisoblanadi.

### **Uyushib kelayotgan bo'laklarni juft so'z tarzida keltirish holatlari mavjud:**

Bunnan son' ko'p uzamay biyshara g'arri **menen** kempir du'nyadan qaytgan (T.Q. 197-bet).

Oradan sal o'tmay, bechora **chol-kampir** ham bu dunyodan ko'z yumibdi... (T.Q. 224-bet).

**Ga'** bilip **ga'** bilmey islegen qa'teliklerin'... (T.Q. 18-bet).

**Bilib-bilmay** yo'l qo'ygan xatolaringiz... (T.Q. 21-bet).

Asliyatdagi bog'lovchilarning qo'llanmaslik holatlari sifatida shuni ko'rsatish mumkinki, ba'zan tarjimon uyushib kelayotgan qismlarni tashkil qiluvchi u yoki bu so'zning lug'aviy ma'nosiga mos so'zni bera olmaslikdan so'zni ham, o'z-o'zidan, bog'lovchini ham tushirib qoldiradi.

Hamali joq u'ydin' adamı hamalli **ha'm** qoqtasinli u'yg'e miymandarlıqqa kelse o'zinin' jeytug'imna qosimsha sol u'yg'e de bir na'rse a'keledi, al hamallilar qarawındag'ıların' u'yine kelse kerisinshe, erkin toyınıwg'a keledi, ja'ne o'zi menen birna'rseler a'ketiwdi oylaydı. (T.Q. 86-bet).

#### **Tarjimada:**

Bizga o'xshash oddiy odam amaldorroq birovning uyiga mehmon bo'lib borsa o'zi yeb-ichadiganidan tashqari uy egasiga ham biron nima olib boradi. Amaldor o'zining qo'l ostidagi birovning uyiga kelsa, aksincha, qo'l qovushtirib keladi-da, to'ygunicha yeb-ichib, ustiga-ustak o'zi bilan biron nima olib ketishni o'ylaydi. (T.Q. 98-bet). Asliyatda hamalli **ha'm** qoqtasinli deb berilgan qo'shilmadagi hamalli so'zi amaldorroq tarzida to'g'ri tarjima qilingan bo'lsa **qoqtasinli** so'zi tarjima qilinmagan. Bu so'z qorqalpoq tilining izohli lug'atida ham berilmagan. Biz bu so'zni keksa yoshdagi kishilardan so'raganimizda qoraqalpoq tilida qurg'in

so‘ziga sinonim bo‘la olishi, o‘zbek tilida boy, badavlat so‘zlariga muqobil kelishini aytdilar.

Quyidagi gapda yozuvchi qo‘llagan o‘xshatish to‘lig‘icha tarjimada aks etmagan, natijada bog‘lovchi ham qo‘llanmagan:

Men kem-kemnen bir qisim bolıp, samardın’ eki ernegine bekkem asılg’anım sonshelli, awzımdag’ı tıslerim qollarımnın’ barmaqlarına, **al** barmaqlarım tıslerge aynalıp ketken ta’rizli. (T.Q. 5-bet).

Men vahimadan dag’-dag’ titrab, tog’oraning ichiga qapishib olgudek bo‘lib, uning gardishini changalladim. (T.Q. 7-bet).

“Attan tu’se sala anawsın anda, mınawsın mında ılaqtırdım. Jetewi de o’ldi!” (T.Q. 98-bet).

Otdan tushdim-u, unisini u yoqqa, bunisini bu yoqqa uloqtirdim. Yettalasi ham yer tishlab qoldi! ( T.Q. 110-bet).

Tarjimada asliyatdagi bog‘lovchi tushirib qoldiriladi, bog‘lovchi bog‘lab kelgan qismlar **ravishdosh o‘ram** tarzida keltiriladi:

«Olarg’a ne deymen» dep ishinen qapa bolıp janı dag’darısqa tu’sedi **ha’m** aspang’a qol jayıp: «Ey qu’direti ku’shlim, men aljastım, o’zin’ aqıl ber, o’zin’ bir ilajın isle», – dep jalınadı. (T.Q. 129-130-bet).

«Axir, podshodan lafzsizlik chiqsa-da», deb o‘zidan **xafa bo‘lib**, najot istab ko‘kka qo‘l cho‘zibdi: «Ey qodir egam, men yanglishdim, o’zing maslahat ber, yo‘l ko‘rsat», deya iltijo qilibdi (T.Q.141-bet).

### **Noto‘g‘ri tarjima qilingan bog‘lovchilar**

Quyidagi holatlarda tarjimon asliyatdagi bog‘lovchining o‘zbek tilidagi muqobilini qo‘llay olmagan:

Shıg’ıstın’ ko‘p ha’siretli qaran’g’ı bul a’lemdi gullentiw jolindag’i a’wlatlardın’ ja’ne aljaspawı ushin qaldırg’an kartası **ha’m** tas shırası dep bahalaw orınlı. (T.Q. 17-bet).

Sharqning ko'p jabr-u jafolar zulumotlarga to'lug' olamni gullatib yashnatish yo'lida avlodlarning yana adashib uloqmasligi uchun qoldirgan xaritasi **yoxud** shamchirog'i sifatida baholash to'g'riroq bo'lur edi. (T.Q. 21-bet).

Muallif **xarita va shamchiroq** demoqchi, tarjimon **yoxud** bog'lovchisi orqali ikkalasidan biri degan fikrni ifodalagan.

**Solay bolsa da...** u'lken toylardin' sa'renjamlarında minaday da'stu'r bar: hayallar ko'p qamirdi ashitip tandirg'a nan jabaman degenshe ash o'tirmay qamirdin' shetinen otqa go'mme pisirtedi ya bir-eki pa'tir qatirtadi... (T.Q. 6-bet).

Mazkur gapda qo'llangan **solay bolsa da** bog'lovchisi tarjimda **bu yerda** ravish so'z bilan berilgan:

**Bu yerda...**ulkan to'y-tantanalarda shunday udum bor: ayollar qorilgan xamir oshib tandirga non yopgunlariga qadar tamaddi qilish uchun uning bir uchidan cho'qqa ko'mma pishiradilar yo bir-ikki patir yopib oladilar. (T.Q. 8-bet).

Qoraqalpaqlar burinlari ildaydan jay salatug'in edi, **birraq** turnaqsiz salatug'in edi. (T.Q. 15-bet).

Qoraqalpoqlar bir paytlar uy solganida poydevorsiz qurardilar. (T.Q. 18-bet).

Asliytdagi qo'shma gap tarjimada sodda gap shaklida berilgan. Qoraqalpoqlarda uyni loydan solish odatlari borligini tarjimon e'tiborga olmagan va bu tarjimada ifodalanmagan.

To'plangan materiallar tarjimonning ko'p o'rinlarda qoraqalpoq tilidagi teng bog'lovchilarga mos keluvchi muqobil teng bog'lovchilarni o'rinli qo'llay olganligini ko'rsatdi.

### **Bob bo'yicha xulosalar**

Qoraqalpoqcha bog'lovchilarning ba'zilarining aynan o'xshash ekvivalenti bo'lmasa-da, ular o'rnini to'la bosadigan, mazmunan muvofiq keladigan muqobil variantlari tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlagan.

Tarjimada bog'lovchi so'z o'rnida mustaqil so'z, yuklamalarni qo'llash, shuningdek, uyushiq bo'laklarni juft so'z shaklida berishda ham asar g'oyasi, badiiyliги, estetikasi to'g'ri va to'la ochib berilganligi kuzatildi.

Asliyatda bog'lovchisiz berilgan gaplarning tarjimada bog'lovchi bilan tarjima qilinishi asar emotsionalligini oshirishga xizmat qilgan.

Kuzatishlar natijasida qoraqalpoqcha bog'lovchilar noto'g'ri tarjima qilinganligi aniqlandi.

## UMUMIY XULOSALAR

Til doimo rivojlanib turadigan, o`zgarishda bo`lgan ochiq sistemadir. Vaqt o`tishi munosabati bilan til tizimidagi ayrim birliklar eskirib iste`moldan chiqishi, yangi birliklarning kirib kelishi yoki mavjud birlikning yangicha mazmun va ma`no kasb etishi, ayrimlarida ma`no kengayish hollari yoki aksincha torayishi mumkin. Mana shu dinamika qachonlardir bir umumiy manbadan tarqalgan qarindosh tillar o`rtasidagi birliklarning farqli va o`xshash tomonlarini o`rganishga yordam beradi. Lekin qarindosh tillar o`rtasidagi tafovut qanchalik ko`paymasin, baribir, ular qarindosh tillar bo`lib qolaveradi. Ular o`rtasidagi qarindoshlikni saqlab turuvchi asosiy omillardan biri umumiylikdir.

Bog`lovchilarni qiyosiy o`rganish tillar o`rtasidagi aloqalarni, o`zaro ta'sir, bir-biriga munosabati masalalarini ham o`rganishga yordamlashadi.

O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi teng bog`lovchilarning qo'llanilish xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

Teng bog'lovchilarning ma'no va vazifa tomoni, imlo xususiyatlari darslik va qo'llanmalarda atroflicha bayon etilgan bo'lsa ham, o'zbek va qoraqalpoq tilshunoslari teng bog'lovchilarni belgilash borasida har xil nuqtayi nazarlarini bayon qilmoqdalar. O'zbek tilshunosligida teng bog'lovchilar miqdor jihatdan ko'p bo'lmasa ham, teng bog'lovchi deb qaralayotgan birliklarning ayrimlari borasida (jumladan, **na...na, ham, -u, -yu, holbuki**) yakdillik mavjud emas. Bu jihatdan qoraqalpoq tilshunosligi ham mustasno emas. Bog'lovchining turi va bu turga qaysi so'z mansubligi masalasida turlicha qarashlar bo'lganligi bois bir tadqiqotda bog'lovchi deb berilgan birlik boshqasida yuklama qatoriga kiritiladi.

O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi bog'lovchilarning mushtarak va farqli jihatlarini hisobga olib ularni quyidagicha tasnif qilish mumkin.

**I. O'zbek va qoraqalpoq tillari uchun ham tovush, ham ma'no va vazifasi jihatdan bir xil bo'lgan bog'lovchilar.**

**II. O'zbek va qoraqalpoq tillarida ma'no va vazifa jihatdan bir xil bo'lib, tovush jihatdan farqlanuvchi bog'lovchilar.**

### III. O'zbek va qoraqalpoq tillarida tovush jihatdan o'xshash bo'lib, ma'no va vazifa jihatdan tomomila farqlanuvchi bog'lovchilar.

O'zbek va qoraqalpoq tillarida teng bog'lovchilarning baravar qo'llanishi sezilarli darajada ekanligi ma'lum bo'ldi. Tekshirishlar hozirgi o'zbek va qoraqalpoq tillarida teng bog'lovchilarning qo'llanishida mushtarakliklar birmuncha ko'p ekanligini ko'rsatadi. Biroq hozirgi o'zbek tilida qoraqalpoq tilida faol qo'llanadigan ayrim bog'lovchilarning bog'lovchi funksiyasidan butunlay iste'moldan chiqqan. Jumladan, qoraqalpoq tilida **tag'ı, tag'ıda** bog'lovchilari faol qo'llanadi, hozirgi o'zbek tilida **yana va taqi//dag'i** so'zlari bog'lovchi funksiyasida kelmaydi, o'zbek tilida yana so'zi asosan ravish hisoblanadi.

**Va, ham, hamda** singari bog'lovchilar, shuningdek, **-da,-yu** yuklamalari bo'yicha to'plangan faktik til materiallarining tahlili hozirgi o'zbek tilida va bog'lovchisining **hamda -da, -yu** yuklamalarining faol qo'llanilishini dalillamoqda. Shuni ham aytish lozimki, mazkur vositalardan **va** bog'lovchisi ko'proq yozma nutqda qo'llaniladi. Hozirgi o'zbek tili og'zaki nutqida esa uning o'rnida, asosan, **-da, -yu** yuklamalari faol ishlatilmoqda.

**Hamda** bog'lovchisi yordamida tashkil topgan qo'shma gaplar eski o'zbek tilida bo'lmagan. Bu tip qo'shma gaplar XX asr o'zbek tili mahsulidir.

O'zbek va qoraqalpoq tillarida tovush jihatdan o'xshash bo'lib, ma'no va vazifa jihatdan tomomila farqlanuvchi so'zlar, ya'ni qoraqalpoq tilida bog'lovchi, o'zbek tilida boshqa so'z turkumlariga mansub deb hisoblanadigan bir qator so'zlarni aniqladik. **Chunonchi: tag'ı** (qoraqalpoq tilida bog'lovchi) – **tag'in** (o'zbek tilida ravish), **bolmasa** (qoraqalpoq tilida ba'zan bog'lovchi, ba'zan fe'l), **bolmasa** (o'zbek tilida bo'lishsiz fe'l) tek (qoraqalpoq tilida bog'lovchi) – **tek** (o'zbek tilida ravish), **a'tten'** (qoraqalpoq tilida bog'lovchi) – **attang** (o'zbek tilida undov so'z), **a'lle** (qoraqalpoq tilida bog'lovchi) – **alla** (o'zbek tilida ot), **ha'tte** (qoraqalpoq tilidagi abiyotlarda bog'lovchi deb ko'rsatilgan, biroq yuklamalar qatoriga kirilitilishi maqsadga muvofiq) – **hatto** (o'zbek tilida yuklama), **ha'tteki** (qoraqalpoq tilida badiiy adabiyotlarda bog'lovchi deb ko'rsatilgan, biroq yuklamalar qatoriga kiritilishi maqsadga muvofiq) – **hattoki**

(o‘zbek tilida yuklama), **meyli** (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi) – **mayli** (o‘zbek tilida tasdiq so‘z), **geyde, ga‘de** (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi, bazan ravish) – **gohida, goho** (o‘zbek tilida ravish), **bazda** (qq tilida bog‘lovchi) – **bazida** (o‘zbek tilida ravish) **birese, birde** (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi) – **birda** (o‘zbek tilida ravish) **a‘ri** (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi) – **ari** (o‘zbek tilida ot), **al** (qoraqalpoq tilida bog‘lovchi) – **ol** (o‘zbek tilida fe‘l).

Qarindosh tillar o‘rtasidagi umumiylik va o‘ziga xosliklarni, til birliklari xususiyatlarini, jumladan, bog‘lovchilarning farqli va o‘xshash tomonlarini, ularning semantikasini yorqin ochishda bu tillardan qilingan tarjima asarlar tilini kuzatish katta imkoniyat beradi.

T.Qayipbergenovning “Qoraqalpoqnoma” asarida ishlatilgan qoraqalpoqcha ba‘zi bog‘lovchilarning o‘zbekcha muqobil variantlari ham o‘rganilib, ular semantik jihatdan o‘xshash va qisman farqlanishi kuzatildi.

Bog‘lovchilarni tarjima qilish jarayonida tarjimonlarning o‘zbekcha ekvivalent yoki muqobillarini topib o‘girishi natijasida asar tarjimasining muvaffaqiyatli chiqqanligi kuzatildi. Shuningdek, tarjimon yo‘l qo‘ygan ba‘zi kamchiliklar, xususan, bog‘lovchilarni tushirib qoldirish, noto‘g‘ri tarjima qilish hollari ham o‘rganilib, tarjimada ularning muvaffaqiyatsiz ifodalanganligi aniqlandi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI****ILMIY VA NAZARIY ADABIYOTLAR**

1. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Muloqot jurnali. 1998. 5-son.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. – Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 1998. – 103-b.
3. Abdullayev Sh. Tarjima asarlarda frazeologizmlar semantikasi (T.Qayipbergenov asarlarining o'zbekcha tarjimasi asosida). fil. fan. nomz. ...dis. – T.: 2006.
4. Abdurahmonov G'., Sulaymonov A., Xoliyorov X., Omonturdiev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. –Toshkent, 1979, 123-b.
5. Bo'ronova SH. «Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o'zbek tilini o'qitishning metodik asoslari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasiga yozilgan avtoreferat. – Toshkent, 2002.
6. Dadaboyev H. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. O'zMU ilmiy maqolalar to'plami.III. – T.: 2006.
7. Da'wen uli Ernazar. Qaraqalpaq tilinde ko'mekshi so'zler. – No'kis, 1994. 108-b.
8. Ha'zirgi qaraqalpaq tili. 1-bo'lim. Morfologiya. – No'kis. Qaraqalpaqstan, 1974.
9. Ha'zirgi qaraqalpaq tili. Morfologiya. – No'kis. Qaraqalpaqstan, 1981.
10. Hazirgi qaraqalpaq adabiy tilining grammatikasi. – Nokis. Bilim, 1994. – 451 b.
11. Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tili. – No'kis, Bilim, 2010.
12. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabieva. – T.: Ma'naviyat, 2009. – 73 b.

13. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov va boshq. – T.: Manaviyat, 2009. – 72 b.
14. Ravshanova S. Bog'langan qo'shma gaplarda zidlov bog'lovchilari bilan birikkan sodda gaplarning fikriy munosabatlari haqida // Dokl.nauchno-teor.konf.-Buxara, 1957
15. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, Univesitet, 2006. – 464-b.
16. Roziqova G. O'zbek tilida sintaktik polisemiya. NDA. – Toshkent, 1999,
17. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. - Toshkent: O'qituvchi, 1978. -220 b.
18. Salomov G'. Tarjimon mahorati. –Toshkent, 1979.-205 b.
19. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – Toshkent: Adabiyot va sanat, 1983. -190 b.
- 20.Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., M.Qurbonova., Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o'zbek tili. – T.: O'zMU bosmaxonasi, 2007. 366-377-b.
- 21.Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva P.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2009. –416 b.
- 22.Solixo'jayeva S. Bog'langan qo'shma gaplar // O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. -Toshkent, 1992.
- 23.O'rinboev B va b. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. –Toshkent: O'qituvchi, 1990. -96 b.
- 24.O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili (o'quv qo'llanma). - Samarqand: SamDU nashri, 2001, 112-bet.
- 25.O'zbek tili grammatikasi. 1-jild. Morfologiya. –Toshkent, Fan, 1975. 566 b.

## GAZETA VA JURNALLAR

26. Bekbergenov A. Qaraqalpaq tilinde janapaylardin' klassifikatsiyasi haqqinda. // Xabarshi, 1992. № 2. – B.118-119.
27. Bekbergenov Q.A. Ha'zirgi qaraqalpaq tilinde da'nekerge o'tken so'z shaqapları. //Xabarshi. 2005. -№4. – B. 91-92.
28. Da'wletbayev Q. Qaraqalpaq tilinde da'nekerlerdin' grammatikalıq o'zgeshelikleri haqqinda. //Xabarshi. 1968. -№4. – B. 93-94.
29. Da'wletov M. Da'nekerli dizbekli qospa ga'ptin' struktura-semantikalıq tu'rleri. // Xabarshi. 1991. №1. – B. 105-110.
30. Kazakov I. Qoraqalpoq guruhlarida otlardagi so'z yasalishi muammosini o'rgatish tajribasidan. // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2006. – №2. – B. 82-85.
31. Qodirov Q., Qodirov J. XX asr boshlaridagi tilshunoslik asarlarida bog'lovchilarning ifodalanishi va izohlanishi. «Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining fan, ta'lim va tarbiya masalalarini rivojlantirishdagi o'rni». Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –Nukus, 2010. 260 b.

## LUG'ATLAR

32. Bekbergenov A., Paxratdinov Q. Til bilimi terminleri so'zligi. – No'kis: Qaraqalpaqstan, 1997. -108 b.
33. Nurmuxanova E., Niyetullayev S. Qaraqalpaq tilinin' orfografiyalıq so'zligi. –No'kis: Qaraqalpaqstan, 1959.-126 b.
34. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomli. –Moskva, 1981. T.1. -632 b.
35. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomli. –Moskva, 1981. T.2. 1981. - 715 b.
36. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent, 2006. 1-,2-, 3-jildlar.

37. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent, 2008. 4-,5-jildlar
38. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12-jild. –Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 495-b.
39. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-jild. –Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 199-200b.
40. Qaraqalpaq tilinin' tu'sindirme so'zligi. IV tomlıq. – No'kis: Qaraqalpaqstan, 1982.T.1. -402 b.
41. Qaraqalpaq tilinin' tu'sindirme so'zligi. IV tomlıq. – No'kis: Qaraqalpaqstan, 1984.T.2. -388 b.
42. Qaraqalpaq tilinin' tu'sindirme so'zligi. IV tomlıq. – No'kis: Qaraqalpaqstan, 1988. T.3.-367 b.
43. Qaraqalpaq tilinin' tu'sindirme so'zligi. IV tomlıq. – No'kis: Qaraqalpaqstan, 1992. T.4. -636 b.
44. Qaraqalpaq tilinin' orfografiyalıq so'zligi. – No'kis: Qaraqalpaqstan, 1980. -446 b.
45. Hojiyev A.P. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. -144 b.
46. Hojiyev A.P. Tilshunoslik terminlari izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. -168 b.

#### BADIIY ADABIYOTLAR

47. Qayipbergenov T. Qaraqalpaqnama. Roman-esse. – No'kis: Qaraqalpaqstan, 1985. -328 b.
48. Qayipbergenov T. Qaraqalpoqnoma. Roman-esse. /Qaraqalpoqchadan R.Otaev tarjimasi/. –Toshkent: Sharq, 1997. -368 b.

#### INTERNET MATERIALLARI

1. <http://WWW.gov.uz/> Nizomiy nomidagi TDPU sayti.
2. <http://WWW.pedagog.uz/> Pedagogik ta'lim muassasalari portali.
3. <http://WWW..ziyonet.uz.>